

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ijtimoiy fanlar kafedrası

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

_____ dots.G'oziyev S.X.

“ _____ ” _____ 2012 y.

5141600 – MG'; huquq va ma'naviyat asoslari

**Shaxs ma'naviyatida diniy qadriyatlarning o'rni
mavzusi bo'yicha yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Jalilov O'ktam

Ilmiy rahbar: Amanlayev A

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Amanlayev A

BMI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror №____, «__»_____ 2012 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

f.f.d.B.M.Ochilova

Jizzax - 2012

Himoya 2012 yil _____ kuni soat _____ da A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti, Tarix fakulteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasida bakalavr darajasini olish uchun bitiruv malakaviy ishlari himoyasi bo'yicha hay'at yig'ilishida o'tkaziladi.

(Manzil: Jizzax sh. Sh.Rashidov shoh ko'chasi 54.)

BMI bilan Jizzax davlat pedagogika instituti kutubxonasida tanishish mumkin. (Manzil: Jizzax sh. Sh.Rashidov shoh ko'chasi 54.)

Mundarija:

Kirish.....4-9

I bob. Diniy qadriyatlar va ular shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili

1.1.“Diniy qadriyat” tushunchasi va uning mazmun – mohiyati.....10-21

1.2.Diniy qadriyatlar va uning shakllanishining milliy hususiyatlari.....22-40

II-Bob:Mustaqillik sharoitida diniy qadriyatlarga yangicha munosabat va uning shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o’rni

2.1.Mustaqillik yillarida O’zbekistonda din va diniy qadriyatlarga yangicha munosabat41-48

2.2.Ajdodlar ahloqiy merosidagi diniy qadriyatlar va uning shaxs tarbiyasiga ta’siri.....49-58

2.3.Shaxs ma’naviyati rivojida diniy qadriyatlarning o’rni mavzusini o’qitish metodikasi.....59-62

III Xulosa.....63-66

Rezyumisi.....67-68

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.....69-71

Ilovalar

Kirish

Xalqimiz erishgan istiqlol g'oyalari jamiyatimizning hamma sohalariga chuqur o'zgarishlari bilan tobora singib va keng tomir otib kirib bormoqda. Hur Respublikamizning har tomonlama – iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini yuksaltirishda dunyoning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarish maqsadida xalqimizning boy ma'naviyatini o'rganish, asrlar davomida tarixiy shyakllanib va mujassamlashib kelayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni tiklash va takomillashtirish, ularni turmushga tadbiiq etish orqali bugungi kun kishisini tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z risolalarida ta'kidlaganidek: “Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning ma'naviyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylandi. Tarixga murojat qilar ekanmiz, bu hol xalq xotirasi ekanliginbi nazarda tutishimiz, xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi”.¹

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy, diniy-tasafuviiy an'analariga ega. Qomusiiy olimlar Xorazmiiy, Farg'oniiy, Farobiiy, Ibn Sino, Beruniiy, Ulug'bek, Navoiy, Ali Qugugi, Bobur va boshqalar o'zlarining bebaho ilmiy asarlari bilan jahon fani xazinasini boyitgan bo'lsalar, buyuk muhaddis va sufiylar Imom al-Buxoriiy, Imom at-Termiziiy, Abduhamid G'ijduvoniiy, Ahmad Yassaviiy, Sulaymon Boqurg'oniiy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahrori Valiiy, Mahdumi A'zam Qasoniiylar ham ma'naviiy boylikka hissa qo'shdilar.

Ammo, mustamlaka kuchli komunistik mafkura ta'siri ostida milliiy-ma'naviiy me'rosimizni bir yoqlama, davrning,hukmron g'oyalariga moslab soxtalashtirib tadbiiq etish natijasida ma'naviiyatimiz qashshoqlashib ketadi. Xalqimiz boy ma'naviiy me'rosiga aylangan qator milliiy qadriyatlar, an'analar urf-odatlariga e'tiqod qilishga izn berilmadi. Natijada ijtimoiy adolat me'yorii

¹ Karimov I. A. O'zbekiston: milliiy istiiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., O'zbekiston, 1993, b-78.

buzildi, qonun-qoidalar, huquq-tartibot tizimlari suistemol qilindi, diniy qadriyatlar kamsitildi, buning natijasida xalqimizning ertangi kuniga ishonchi so'ndi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchi, tarixiy – madaniy, diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy merosimizni o'rganishdagi bo'shliqni to'ldirish va uni rivojlantirish hozirgi bosqichning dolzarb muammolaridan xisoblanadi. Chunki, har qanday madaniyatlar ostida turli diniy, falsafiy, axloqiy aqida va ta'limotlar yotgan bo'lib, ularni o'rganmasdan turib, halqlar madaniyatining shakllanishida asosiy sarchashma hisoblangan ma'naviy manbani bilish mumkin emas.

Ikkinchi, yosh mustaqil mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'daniy ravnaqini ta'minlash, yosh avlodning ongi va ma'naviy dunyosini qayta o'zgartirish qonun qoidalarini puxta o'rganib, o'z xuquq va burchlarini chuqur anglab yetishni, zararli salbiy xatti-xarakatlarning ijtimoiy talabga mos kelmaydigan har xil illatlardan voz kechishni taqozo qiladi. Buning uchun har bir yosh avlod shaxs ma'naviyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan diniy qadriyatlarni bilishi lozim. Har bir fuqoro o'z vatani, xalqi manfaati va maqsadlari uchun tolmay xizmat qiladigan, ijtimoiy adolat tinchlik, erkinlik, xaqiqat, ma'rifat, nafosat, yaxshilik, halollik, to'g'rilik burch va sadoqat kabi ahloq tushunchalarini o'ziga singdirishi va mujassamlashtirishi kerak. Buni amalga oshirishning eng asosiy omillalardan biri xalqimiz aratgan boy ma'naviy merosini shu jumladan diniy qadriyatlarni keng omma ongiga yetkazishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy o'rganilganlik darajasi:

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha g'arb va sharq mutafakkirlari tomonidan bir qator ishlarida o'z ifodasini topgan.

Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Xo'ja Samandar Termiziy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur shu tariqa IX-XX asrlarda yashagan Imom al-Buxoriy, Imom at-

Termiziy, al-Mutarodiy, Muhammad az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiyy. “Ichingdagi ichingdagidir” asari Bekmurodov “Milliy mintaletit va rahbar ma’naviyati” asarlari diniy qadriyatlarning yetakchi masalasi bo’lgan ahloqiy qarashlar aks etgan manblardir.

Ajdodlarimizning ijtimoiy tafakkur rivojiga e’tabor bergan bo’lsak, axloqqa doir madaniy me’rosimiz bunyodkor g’oyalar sifatida shakllantirilganligini kuzatamiz.

Ya’ni, O’rta Osiyo xalqlarining hayotida XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida uzoq yillar ruhiy tanazzuldan so’ng ma’naviy qadriyatlarning yangi to’lqini paydo bo’lgan. Ular adabiy, badiiy, diniy ko’rinishda o’z davrining ijtimoiy-siyosiy voqyealarini qamrab kelgan. Buni Ogohiy, Avaz O’tar, Komil Xorazmiy, Bedil Fuzuliy, Axmad Donish, Muqumiy, Furqat, Mulla Olim Mahmud Hoji singari mutafakkirlar va boshqalar asarlardagi ijtimoiy-siyosiy axloqiy qarashlarda kuzatish mumkin. Mazkur asarlarning o’rganilishi O’rta Osiyo tarixida davlat va jamiyat boshqaruvining qay darajada diniy qadriyatlarga asoslanganligi, ijtimoiy-ixtiloflarning kelib chiqishi hamda yurtning mustamlakachilik holatiga olib kelgan sabablarni aniqlashda, undan to’g’ri sabab va hulosalar chiqarishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Sobiq sho’rolar davrida uzoq vaqt faylasuflar, ma’lum sabablarga ko’ra din va diniy qadriyatlar o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik masalasini chetlab o’tishga majbur bo’ldilar. Ular diniy qadriyatlarni faqat diniy ongga taalluqli hodisa hisoblab, bu haqda ilmiynomaroq fikr bildirgan tadqiqotchilarni dindorlikka moyillikda aybladilar. Shunga ko’ra ko’plab g’arb tadqiqotchilari davr ruhidan kelib chiqib, din va diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qiladilar. Misol uchun, Ye.I.Shexterman, A.A.Aleksandrov, A.M.Foykel, Yu.F.Burunkov, D.M.Uchrinovich, B.F.Bukin¹ va boshqalarning

¹ Shexterman Y.I. Vera ili znaniye. Alma-ata. 1967; Aleksandrov A.A. Nauchnyy poisk i religioznaya vera. Moskva, 1974; Foykel A.M. Atlisticheskaya ubejdennost i jiznennaya pozisiya cheloveka. Moskva, 1978; Burunkov Yu.F. Ubejdennost i vera. Moskva, 1969; Uchrinovich D.M. Psixologiya religii. Moskva, 1986; Bukin F.M. Nagrani verы i neveriya. Leningrad, 1974.

din va diniy qadriyatlar, ularning tarixi to'g'risidagi asarlarida ko'rish mumkin. Shuningdek, davrimiz olimlari bo'lgan T.Mahmudov, M.A.Usmonov, I.Karimov¹ va boshqalar asarlarida ham diniy qadriyatlar va ularning mazmun-mohiyati atroflicha tahlil etilgan. Bunday yondashuvlar din va diniy qadriyatlar hodisasini chuqurroq, kengroq, asosliroq tadqiqot obyektiga aylantirish uchun yo'l ochdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Diniy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sirini ilmiy-nazariy tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi:

- diniy qadriyatlar tushunchasiga ta'rif berish;
- diniy qadriyatlarni mazmun-mohiyatini tahlil etish;
- diniy qadriyatlarning milliy negizlarini va uni rivojlantirish omillarini tadqiq qilish;
- jamiyat hayotida diniy qadriyatlarning muvofiqlik darajasi mezonlari va uning namoyon bo'lish hususiyatini tahlil qilish;
- jamiyatda diniy qadriyatlarni ta'minlash omillarini tadqiq etish hamda ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti:

-diniy qadriyatlar va ular shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi komponentlarni aniqlash.

Tadqiqot predmeti:

-shaxs ma'naviy kamolotida diniy qadriyatlar bilan bog'liq obyektiv va subyektiv omillarning individual tomonlarini tadqiq etish.

¹ T.Maxmudov. Avesto haqida. T. Sharq; 2006; M.A.Usmonov. Daxriylai va qadriyat// Yosh leninchi, 1991, 3-fev; I.Karimov. Iymon va maslak tarixi. T. Yangi nashr, 2010.

Ilmiy yangiligi:

-diniy qadriyatlarni anglash bilan bog'liq muammolar, ularni aniqlashtirish orqali diniy dunyoqarashning shakllanish jarayonlari ilmiy asoslandi;

-diniy qadriyatlar tushunchaning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy tahlil etilgan;

-diniy qadriyatlarni ta'minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini ochib berilgan;

-milliy davlatchilik tajribalarini umumlashtirish ijtimoiy tanazzul va yuksalishga olib kelgan siyosiy jarayonlar diniy qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining yozilish uslubi:

Malakaviy ishini yozishda qiyoslash, mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish, sintez qilish, tarixiy, sistematik va muammoli o'qitish va so'rov-anketa metodlaridan keng foydalanildi.

BMIning ilmiy-nazariy manbalari:

BMIning yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan din va qadriyat haqidagi fikr-mulohazalar va g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, sharq mutafakkirlarining diniy qadriyatlarni ifodalovchi ahloqqa oid asarlari muhim nazariy manba vazifasini o'tadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati:

BMIda olingan natijadan, shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi diniy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy muammolarini kelgusida chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

BMIning amaliy ahamiyati shundaki, undagi daliliy materiallar va amaliy tavsiyalaridan oliy o'quv yurtlarida falsafa, ahloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslik asoslari, siyosatshunoslik kabi fanlardan ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi:

BMI kirish, beshta paragrafni o'z ichiga olgan. Ikkita bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Matnning umumiy hajmi 71 betni tashkil qiladi.

I bob. Diniy qadriyatlar va ular shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili

1.1. “Diniy qadriyat” tushunchasi va uning mazmun - mohiyati

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-hil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor» kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, qatag'on siyosati va tuzumi davrida bu atamalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o'zbekcha lug'at boyligidan surib chiqarishga harakat qilingan edi. Bunga dalil sifatida 1959-yili Moskva «Xorijiy va milliy lug'atlar davlat nashriyoti» tomonidan chop etilgan. 40 mingdan ortiq so'zdan iborat «O'zbekcha – ruscha lug'at»ga ham, 1988-yili O'zSE Bosh redaksiyasi chiqargan «50 ming so'zlik «O'zbekcha – ruscha lug'at»ga ham «qadriyat», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy iftixor» kabi tushunchalarning kiritilmaganligini ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, ular 1981-yili Moskvada «Rus tili» nashriyoti tomonidan chop etilgan, 60 ming so'zni qamrab olgan ikki jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham uchramaydi. Shunisi borki, hatto ba'zi ruscha – o'zbekcha lug'atlarda ham «qadriyat» so'zi qo'llanilmagan. Jumladan, 1976-yili «fan» nashriyotida chop etilgan «ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati»da «sennost» so'zining 4 ta ma'nosi alohida lug'at maqolasi tarzda berilgan holda ularning birortasida “qadriyat” ma'nosi o'z ifodasini topmagan.

Ko'rinadiki; «Falsafiy ensiklopediya»da ruscha «sennost» tushunchasiga kishilar tomonidan yo ijobiy, yo salbiy baholanadigan, ularning moddiy va ma'naviy hayotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

Ana shunga yaqin nuqtai nazar O'zbek Sovet Ensiklopediyasida ham bayon etilgan" «Qadriyat (falsafa va sosiologiyada) – voqyelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. ...Qadriyatlarni mazmuni va xarakteriga ko'ra progressiv va reaksiyon tiplarga ajratish mumkin.» Bu esa mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga uni izohlashni mushkullashtiradi. Turli chalkashliklar keltirib chiqaradi.

Shu jihatdan taniqli faylasuf olim V. P. Tugarinovning fikri e'tiborga loyiqdir: «qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining xaqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihati)dir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlari uchun maqsad yoki ideal bo'lgan qadriyatlarni amalgam oshirishga intiladilar.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi... berilgani holda ularning birortasida «qadriyat» ma'nosi o'z ifodasini topmagan.

Istiqlol halqimizga so'z va fikr erkinligi bilan bir qatorda ilgari ishlatilib kelingan ko'pgina milliy tushunchalarni hayotimizga qaytardi.

Endilikda «qadriyatlar», «mustaqillik», «istiqlol», «milliy iftihor» kabi tushunchalar o'zining asl mazmuniga ega bo'lmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, mazkur atamalarning hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida teran ildiz otib ketishida muhtaram Prezidentimiz I. A. Karimovning xizmatlari katta. Uning asarlari va nutqlarida mustaqillik tufayli hayotimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, jumladan milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, urf-odat, an'analarimizning tiklanishi, milliy g'ururimiz, milliy o'zligimizni anglashimizning tobora yuksaliyotganligi faxr – iftixor bilan qayd qilinib kelmoqda. «Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, - deb yozadi I. A. Karimov, - jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, olijanob milliy va diniy an'alariga hurmat bilan qarash, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizasiyasi va ularni oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamondirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi.»¹

Shunday qilib, mustaqillik milliy ma'naviyatimizning zaminini tashkil qiluvchi «qadriyatlar», «milliy istiqlol», «milliy iftihor», «milliy g'urur», «milliy ong» kabi tushunchalarning ijtimoiy-siyosiy va kundalik hayotimizdagi ahamiyati va o'rnini qayta tiklab berdi. Bu bizning ma'naviy hayotimizda qo'lga kiritgan katta yutuqlarimizdandir.

¹ I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T., "O'zbekiston", 1999, 116-b.

Xo'sh, qadriyatlar o'zi nima? Uning mohiyati, asosiy jihatlari nimalardan iborat? Eng avvalo shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni o'rnatishimiz mumkin. Masalan, «Falsafiy ensiklopediya»ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: «Qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U, birinchidan, biror obektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normative belgilovchi – baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra ob'ektiv (ashyoviy) va sub'ektiv (ong) qadriyatlarini bir-biridan farqlanadi».

Mustaqillikning ma'naviy sohadagi yana bir ne'mati shundan iboratki, jamiyatimiz, davlatimizning dinga bo'lgan munosabati o'zgardi.

Ma'lumki, diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo'lib u o'z ichiga buddizm (eramizdan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda), islom (eramizning VII asrida G'arbiy Arabiston) kabi jahon dinlarini qamrab oladi.

Diniy dunyoqarashning asosiy elementlarini diniy e'tiqod tashkil qiladi. Diniy e'tiqod dinga ishonuvchi kishilar ruhiyati, intellectual xissiy va iroda elementlarini o'ziga qamrab olgan murakkab hodisadir. Diniy e'tiqodning intellektual elementi dinga ishonuvchi kishilar ongida mavjud bo'lgan diniy tasavvurlar, obrazlardan tashkil topadi va ular dinga ishonuvchi kishilar tomonidan hayotiy zarur narsa sifatida qabul qilinadi.

Diniy e'tiqodda hissiyot katta rol o'ynaydi. Kishilar turli xissiyotlari – qo'rqishi, muhabbati, zavqlanishi, ehtiromi, quvonchi, umidi va hakovolar diniy tasavvurlar bilan qo'shilib ketib, tegishli yo'nalish, ma'no – mazmun kasb etishi mumkin. Ana shunday xollarda ular «xudoga muhabbat», «gunohkorlik», «itoatkorlik», «bandalik tuyg'usi», «xudo

bilan muloqotda bo'lish quvonchi», narigi dunyodagi hayotga umid va hokozolarga aylanadi. Hissiyot elementini ilohiyotchilar inson ongining oily darajadagi ko'rinishi, oily axloqiy qadriyat, bilishning eng ishonchli shakli deb uqtiradi.

Diniy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlarini (konsepsiyasini) ifodolovchi diniy aqidalar dindorlar uchun majburiy xisoblangan va muhokama yuritmasdan ishonish lozim bo'lgan diniy e'tiqod talablarida o'z aksini topgan. Islom dinining shakllangan va diniy an'analarda e'tirof etilgan aqidalari yoki imon talablari 7 ta: Ollohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga va inson o'lgandan keyin tirilishiga ishonish.

Diniy dunyoqarashning yana bir tarkibiy qismini diniy ong tashkil etadi. Sig'inish odamlarning kundalik hayotida yakka yoki jamoa bo'lib bajariladigan rasmiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Qurbonlik qilish, Qur'on o'qitish, ro'za tutish va diniy bayramlarni nishonlash, islom diniga keng tarqalgan marosimlardir. Sig'inish vat oat-ibodat tufayli kishilarning diniy ehtiyojlari qondiriladi.

Diniy e'tiqod diniy ongning umumiy belgisi, mezoni bo'lib, u diniy g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar, tan olib, Ollohning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga oladi.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi uchun aqidalarning ishlab chiqilishi va turlicha diniy bayramlar, marosimlarning o'tkazilishi katta ahamiyatga egadir. Diniy qadriyatlar o'zining tantanali bayramlari, har xil marosimlari bilan kishilar ko'nlida ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik, xushfe'llik, rahm-shafqat, sabr-toqat, qanoat, mehr-oqibat, hamdardlik, vijdoniy burch, poklik, odamgarchilik va shu kabi fazilatlarini shakllantiradi va kamol topdiradi.

Diniy dunyoqarashning tarkibiy qismida mo'minlar uchun Makka-Madinaga borib u yerdagi muqaddas joylarni ziyorat qilib, turli diniy urf-odatlarni bajarish islom rukularidan biri hisoblanadi. Shuningdek, islom diniga payg'ambarlar va ularning sahoblari qadamjolarini ziyorat qilish an'anasi ham keng tarqalgan. Markazi Osiyo hududida bunday joylar juda ham ko'p. samarqanddagi Shohi Zinda, Imom Ismoil al-Buxoiy, Muhammad Huvaydo, Buxorodagi Qizbibi, Xoja Bahouddin Naqshband, Toshkent viloyatidagi Zangiota, Anbar ona qadamjo va maqbaralari shular jumlasidandir.

Diniy dunyoqarashning e'tiborga molik jihatlaridan biri unda har bir inson amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yor va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Masalan, Shariat bo'yicha ummatlarga buyurilgan amallar sakkiz xil bo'lib, (farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh, mustakrah) jami 934 huquqlar va nizomlarni tashkil etadi. Ularning aksariyati hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki islom va uning shariat talablari mavjud shaxsiy hayotdagi va umuminsoniy muammolardagi eng zarur axloqiy fazilatlarni o'zida aks ettirgan.

Diniy dunyoqarashning inson ongiga singib, uning qalbida chuqur ildiz ketishining boisi, uning asosiy qoidalari oddiy kishilarning ruhiyatiga xos bo'lib, ularning xissiyoti, tafakkuriga katta ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida bayon qilinadilar. Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avloddan avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bunday katta ma'naviy boylikka biz albatta xurmat bilan qarashimiz kerak.

Din kishilarning ongiga o'z ta'sirini o'tkazish bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham doimo muhim rol o'ynab kelgan. Hozirgi davrda ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqyega egadir.

Dunyo xalqlari azaldan har xil dinga sig'inadilar. Osiyo va Afrika mamlakatlarning ko'pchiligida islom dini davlat mafkurasi sifatida rasmiy ravishda qabul qilingan. 30 dan ortiq mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi g'oya hisoblanadi. Ular Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Afg'oniston, Eron, Iroq, Suriya, Jazoir Pokiston va boshqa mamlakatlardir. Bugungi kunda islom dini o'ziga xos yo'llar bilan dunyoning juda ko'p mamlakatlariga yoyilib kirib bormoqda.

Xristian va boshqa dinlar ham turli mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashib kelmoqda. Hozir uzoqni ko'ra biladigan davlat boshliqlari, siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlarning raxbarlari din va dindorlar bilan hamjihat bo'lib ish yuritishni o'zlariga maqsad qilib olishlari bejiz emas albatta.

Dinning fanga, uning yutuqlariga bo'lgan munosabati, haqida ham yangicha fikr hosil bo'lmoqda. O'tmishda biz din bilan fanni bir-biriga zid bo'lgan, bir-birini mutlaq istisno qiluvchi ijtimoiy ong shakllari, insoniyat madaniyati tarixi din bilan fan o'rtasidagi kurashdan iborat, deb kelgan edik. Ammo shu narsa ma'lum bo'ldiki, fanning turli dinlarga, aksincha turli dinlarning fanga munosabati hamma joyda bir xil va bir tekis bo'lgan emas. Uyg'onish davrida yashagan G'arbiy Yevropa olimlari, jumladan Jordano Bruno, Galiley, Kopernik, XVII asr fransuz olimlari Pol Golbax, Klod Gelevsiy, Deni Didro va boshqalar xristian diniga ochiq oydin qarshi chiqib, uning ta'limotini inkor etgan bo'lsa, O'rta Osiyo mutafakkirlari fan bilan diniy ta'limotni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan ikkalasidan ham baxramand bo'lib kelganlar. Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino

xudo dunyoning asoschisi deb e'tirof qilsa, Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" asarida dunyoni Tangri taolo bunyod qilgan, odamni ham u yaratgan degan fikrni olg'a surgan.

Hozirgi vaqtda ham G'arbiy Yevropa mamlakatlarida diniy e'tiqod bilan fanni muvofiqlashtirib rivojlantirishga da'vat etib kelayotgan olimlar oz emas. Masalan, katolog cherkovlarining rasmiy falsafasi deb tan olingan neotomizm ta'limotining namoyondalari Mariten, Jilson (Fransiya), Vetter (Avstriya), de Reymeker (Belgiya) va boshqalar diniy e'tiqod va fan haqiqatga erishishning ikkita manbai, shuning uchun ular bir-birini istisno etmaydi, aksincha, to'ldiradi, degan g'oyani tarqatib kelmoqdalar. Ularning fikricha, diniy e'tiqod va bilim o'rtasida to'la uyg'unlik mavjud. Neotomistlar bilim bo'lmagan joydagina e'tiqod kerak deb tan oladi. Ularni ko'r- ko'rona irrasoinal e'tiqod qoniqtirmaydi.

Din va diniy dunyoqarash xususida so'z borganda shuni aytish kerakki, o'tmishda biz dinga bir tomonlama yondashib, uning inson manfaati sohasida, kishilarning axloqiy munosabatlarini takomillashtirishdagi ijobiy rolini inkor etdik. Dinga qarshi kurash niqobi ostida xalqimiz asrlar mobaynida amal qilib kelgan an'ana va urf-odatlar taqiqlandi, qanchadan-qancha masjid va madrasalarini asossiz ravishda buzib tashlandi. Necha minglab jildlarni tashkil etadigan nodir kitoblar shaxsga sig'inish va qatag'on avj olgan yillarda kuydirib tashlandi.

Hozirgi paytda o'tmishda ro'y bergan haddan oshishlar tuzatilmoqda, ijtimoiy adolat tiklanmoqda. Yopib qo'yilgan ba'zi masjidlar ochildi, ko'plab yangi masjidlar qurildi va qurilmoqda, diniy adabiyotlarni nashr etish yo'lga qo'yildi.

Istiqlol tufayli dinga munosabat o'zgardi. "Biz- deydi I.Karimov, - mustaqil o'zbek davlatining poydevorini ko'rmoqdamiz. Ming qatla

shukirki, tilimizni, dinimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni, butkul yo'qotib qo'yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklashga o'tdik.”¹ Qur'oni Karim, Hadisi sharif va boshqa diniy adabiyotlar o'zbek va rus tillarida chop etildi. Ramazon va Qurbon hayitlari xalqimiz milliy bayram sifatida qaytdi.

1992-yil bahorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Toshkent shahrida halqaro Islom tadqiqot markazi”ni tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorda aytilganidek, islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish o'zbek xalqining diniy tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish uni kelajak avlodga yetkazish markazining asosiy vazifalaridir.

Mamlakatimizda islom dini bilan barobar pravosalav, iudaizm, baptism, adventizm, katolotizm, singari undan ortiq boshqa konfessiyalar erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 yili 9 iyunda Toshkent va O'rta Osiyo arxiepiskopi Vladimirning Svyato Uspenskiy kafedral sobori huzurida diniy ma'muriy markaz tashkil etish va 1996 yili noyabr oyida Eparxiyaning 125 yilligi tantanalarini o'tkazish tog'risidagi taklifini qo'llab-quvatlab, maxsus qaror qabul qildi.

Eparxiya faoliyatidagi amaliy yordam berish Svyato Uspenskiy sobori hududini kengaytirish uchun 2 gektar yer ajratildi. Bularning hammasi respublikamizdagi barcha fuqorolarga bir xil munosabatda bo'linayotganligining yorqin namunasidir.

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi mu'yaddasdir. 3-jild. T., «O'zbekiston, 1996, 134-b.

Din va dindorlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashib, Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Din arboblari odamlarni tinchlikni saqlashga, merosiy urf-odatlar va an'analarimizni avaylab asrashga, mehnatni sevishga va qadrlashga, ekologiya va demografik muammolarni ijobiy hal etishga da'vat etmoqda.

«Biz musulmon va boshqa din vakillari bilan kundalik ishimizni bundan keyin ham takomillashtirib boramiz. Dindorlarning din peshvolarining maslahatlarini, ehtiyojlarini o'z faoliyatimizda inobatga olishimiz kerak»¹.

Jamiyatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan ishlar din va dindorlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi diniy ishlar qumitasining sobiq raisi Abulg'ani Abdullayev shunday deydi: «Islom dini ravnaq topib, uning adolatli va ma'rifatli g'oyalari har bir muslimning qalbiga tobora chuqurroq kirib bormiqda. Odamlarningmehr-oqibatli, bo'lishida, izzat-ehtiromlariga rioya etishda bu dinning hizmati ham benihoyadir. Mamlakatimiz mustaqil bo'lgach, islom yo'lidagi barchato'siq va g'ovlar olib tashlandi. Endilikda muqaddas kalom va oyatlar har bir mo'min-muslimon uchun g'oyat e'zozli bo'lib bormoqda. Hukumatimizning bu borada olib borayotgan siyosatidan hammamiz xursandmiz. Bugungi kunda yurtimizda ko'plab masjidlar ishlanmoqda. Prezidentimizning farmoni oliyari bilan islomdagi ikki buyuk shodiyona

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997, 148-b.

Ramazon va Qurbon hayitlari umumxalq bayrami deb e'lon qilinganligi nur ustiga a'lo nur bo'ldi»¹.

Davlatimiz rahbarlari tomonidan olib borilayotgan ochiq siyosat dinga e'tiborning kuchaytirilishi tufayli musulmon mamlakatlarining munosabati O'zbekistonga nisbatan keskin o'zgarmoqda.

Buni biz Qurbon hayiti munosabati bilan Prezidentimiz nomiga kelgan tabriklardan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Quvayt davlati valiahd shahzodasi va Bosh vaziri Sand al-Abdulla as-Salim deydi- «Shu voqeya munosabati bilan qodir Allohdan musulmon olamini yanada jipslashtirishni, barcha musulmon xalqlarining mustahkam hamkorligi va birdamligini iltijo qilamiz».

Eron Islom Respublikasining Prezidenti Akbar Xoshimiy Rafsanjoniyning tabriknomasida shunday yozilgan: «Ushbu saodatli kunlarning sharofati hamda barcha musulmon davlati va millatning hamkorligi va sa'yi-harakatlari ila jahon musulmonlarining ilgaridan ko'ra ko'proq baxt-saodati va birdamligining shohidi bo'lasiz deb umid qilaman»².

Shunday istaklar Saudiya Arab Respublikasi prezidenti Hafiz al-Asad, Tunis Respublikasi prezidenti Zayn al-Obidin ibn Ali, Ummon Sultoni Kobus Ibn Said. Turkiya Jumhuriyati Prezidenti Sulaymon Demirel, Iordaniya Xoshimiylar podsholigi podshohi Xusayn, Birlashgan Arab Amirliklari prezidenti Zayd Ibn Sulton Ol Naxayan va boshqalarning tabriknomalarda ham izhor etilgan.

¹ Qarang// Hidoyat. 2010, №2-son, 7-bet.

² Xalq so'zi. 9-may, 1995 yil soni.

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, din, ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, kishilarni qon-qardosh qiladigan buyuk kuch.

Xulosa qilib aytish mumkinki, diniy qadriyatlar hodisa, jarayon sifatida insonning yoshi, jinsi, xulqi, aqli vva jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarining ham natijasidir. Diniy qadriyatlar birinchi navbatda insonning ruhiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Tasavvur eting, inson kimgadir yaxshilik qilgisi keladi. Bu hol ayni paytda uning o'zi ham yaxshilikka, mehrga mushtoq ekanini bildiradi. Shu bois u yaxshilik qiladi-yu, buning evaziga o'ziga mehr-quvvat oladi, ruhiy ehtiyojini qondiradi. Shu ehtiyojni qondirish jarayonida insonning xayrli amallari, ezgu faoliyati shakllana boradi. Diniy qadriyatlarning shaxs tarbiyasida ta'sirchan kuchi ana shunda namoyon bo'ladi.

1.2. Diniy qadriyatlar va uning shakllanishining milliy xususiyatlari

“Aslini olganda axloq-ma’naviyatning o’zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas. Axloq-bu, avvalo insof va adolat tuyg’usi, imon, halollik degani”¹.

Uch ming yillik tarixga ega bo’lgan o’zbek xalqi nafaqat tarixiy jihatdan tafakkur taraqqiyoti jihatidan ham murakkab jarayonni bosib o’tdi. O’zbek xalqining millat sifatida shakllanishi milliy tafakkur shakllanishining tarixiy bosqichlarini mazkur paragraph doirasida qamrab olish imkoniyati cheklangan. Lekin milliy tafakkur taraqqiyotida muhim bo’lgan ayrim jihatlarni tahlil qilish o’zbek mentalitetida axloqiy madaniyat sifatida shakllanish va saqlanib qolish, o’zlikni anglash jarayoniga butun tarix davomida ta’sir etib turganini ko’rsatib turishi mumkin. Qolaversa “jamiyatning buguni va kelajagi uning o’tmish mohiyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham o’tmishni to’g’ri baholash faqatgina nazariy vazifa emas. Jamiyatning bugungi amaliy vazifalarini hal etishda o’tgan avlodlarning ijtimoiy tajribalarini ijobiy yetkazib berish insonlarning o’z tarixlari hamda madaniyatlariga nisbatan qadriyatliq munosabatlarining to’g’ri shakllanishi uchun ham muhim va zarurdir”.²

O’zbek milliy qadriyatlari shakllanishi tarixida ham milliy ma’naviy merosimiz “Avesto”, uning vujudga kelishi va u bilan bog’liq tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlar katta ahamiyat kasb etgan.

2001-yili mamlakatimizda uzoq o’tmishdan meros bo’lib qolgan ma’naviy qadriyatlardan biri zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avestoning 2700 yilligi nishonlandi. Zardushtiylikka ta’rif berishda uning hozirgi zamondagi ahamiyati ko’rsatishda davlatimiz rahbari Islom

¹ Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O’zbekiston. 1996-39 b.

² Bokiyeva A. Sosialnaya pamyat i tolerantnost /hittm hhh/ freenet /kg/ journal/~/ jnnal/ 3 htm.

Karimovning bu din va uning muqaddas yozuvi “Avesto” haqidagi mazmunan teran, shaklan sayqal topgan fikrlari biz uchun nazariy asosdir. Avesto haqida davlatimiz rahbari zo’r mamnuniyat va benihoya iftihor hislari bilan bunday degan edi: “Eng mo’tabar Qadimgi qo’lyozmamiz “Avesto”ning yaratilganligiga uch ming yil bo’lyapti. Bu nodir kitob bundan III asr muqaddam ikki daryo oralig’ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o’lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo’lganidek, guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki uni hyech kim inkor eta olmaydi.¹

Avestoda boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy masalalar bilan bir qatorda axloq, odobga doir qoida o’git, da’vat, cheklash ta’qiqlash qoidalari ham mavjud.

“Avesto” 30-karomatida aytilishicha Axrimanning yugurdaklari deb, pari, jin, iblislar, gunohlar, aldashishlar, aldashlar xastaliklar timsoli sifatida tasvirlanib Axuramazdadan odamlarni bunday xavflardan saqlash so’raladi. Ta’limotga ko’ra har bir odam bergan so’zining ustidan chiqishi unga sodiq qolishi savdo-sotiq ishlariga qat’iy amal qilishi, qarzni vaqtida to’lashi aldamchilik va xiyonatdan xoli bo’lish iymonlilik alomatlaridir.

Shunday qilib, zardushtiylikda ijobiy va salbiy xususiyatlar axloqiylik va axloqsizlik bilvosita ya’ni Xudo Iloh, ularning real olamdagi dastiyorlari orqali tasvirlangan. Zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchilarning axloqiy-estetik dunyoqarashlarini ifodalagan, ahloq Tangrining, uning dinga dunyoviy go’zallik va tabiiy tartibdan badiiy zavq

¹ I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. T., 1998-yil 10-bet.

olish odati ham kirib kelgan. Tabiiy jism va axloqiy poklanish ularning birinchi ibodati hisoblangan.

Insoniyat axloqiy qadriyatlari xazinasiga zardushtiylik qo'shgan hissalaridan bir turkumi inson axloqiy burchini yuksak qadrlash har bir individning shaxsiy axloqiy kamolotini boshqalarga hadya qilishga chaqirish, yolg'onchilik va ikkiyuzlamachilik nafrat bilan qarashdan iborat. "Bu ta'limot optimistik guruh bilan sug'orilgan bo'lib, unga ko'ra yaxshilik yomonlik ustidan, go'zallik xunuklik ustidan g'alaba qozonadi"¹ –deb g'oyat o'rinli tarzda yozgan edi T.Mahmudov.

Ezgulik va yovuzlik masalalari Sharq axloq kodeksida birinchi marta zardushtiylikda tilga olingan. Masalan Avestoning 2-kitobi "Yasna"ning 7-bobida Zardusht orqali go'yo Axuramazda xabar bergan karomatlar ifodalangan. Zardusht bu hududda o'z axloqiy qarashlarini ma'lum qilishni so'ragan. Shunda Axuramazda bunga javoban mavjud olamning 2 ibtidosi – ezgulik va yovuzlik hodisasini vahiy qilgan, bular hamisha yonma-yon bo'lib, jahannam va osmon ma'nolarini anglatgan.

Jahannam vahiyda hayotning eng yomon onlari, fursatlari, yovuzlik ramzlari sifatida ifodalangan. Osmon esa "ruhning eng yuksak holati ezgulik sifatida aks etgan" Umuman olganda "Avesto"da axloqiy qadriyatlarning shakllanish hususiyati Sharq axloq kodeksining debochalari oddiy sodda uslubda biroq teran mazmunda bayon etilgan.

Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek xalqi tarixini yuritishdagi ba'zi manbaalarida o'zbeklar ko'chmanchi va o'troq tarzda yashovchi xalqlardan tashkil topgan, etnik birlik deb ta'rif etilgan. Markaziy Osiyoning mustaqil davlatlardagi aksariyat ijtimoiy gumanitar tadqiqotlarda ushbu mintaqa xalqlari bir butun tarzda ko'chmanchi

¹ Mahmudov T. Avesto haqiqati. T., 2009, 84-bet.

xalqlardan tashkil topgan degan fikr mavjud. Biz masalaning boshqa tomoniga e'tibor qaratmoqchimiz. Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi ma'naviyatining tarixiy ildizlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda ko'chmanchilarning dunyoqarashi tahlili, uning hususiyatlari, psixologik ildizlari Avesto va undan keyingi davrdagi ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotning harakteri va kayfiyatiga aynan mos tushadi. Avlodlarning vorisiyligi ajoyib tarzda idrok va falsafiy kayfiyatni o'zida ifodalagan, xotirada aks etgan. Xotira tirik bog'lovchi ip sifatida chuqur ko'chmanchi ong va madaniyat taraqqiyoti ko'lami o'lchovi sifatida maydonga chiqadi. Markaziy Osiyoga qilingan aksariyat bosqinchilik yurishlari va missionerlik harakatlariga mahaliy xalq tomonidan bo'lgan qarshiliklar bilan birga ma'naviy mafkuraviy sohada ham kuchli monelik mavjud edi. Zardushtiylikdan keyin uni ta'sirida shakillangan va zardushtiylikning ko'p elementlarini o'zida birlashtirgan Mazdakiya, Moniya, Xurramiya harakatlarida ijtimoiy adolat, farovonlik, tenglik, axloqiy mezon, ideal baxt kabi demokratik g'oyalar hamda milliy umuminsoniy axloqiy g'oyalarning ustuvorligi yetakchi omilligicha qoldi. Keyinchalik dunyoda yagona imperiyani yaratmoqchi bo'lgan Aleksandr Makedonskiy bosqini tarixiy vaqt nuqtai nazaridan deyarli ketma-ket sodir bo'lgan arab bosqini oddiy xalq orasidangina emas ziyolilar muhitida ham missionerlik singdirish bilan mazmun mohiyat jihatidan o'z maqsadlariga ancha vaqtlargacha erisha olmadilar "bu davr O'rta Osiyo Eron Xuroson madaniyati fani, adabiyoti va san'atining arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarga o'ta keng tarqalgan va bu madaniyat arboblari tomonidan o'zlashtirilgan davr edi.

Siyosiy hokimiyatlar arboblarni qoʻlida boʻlgani bilan madaniy hukumdorlik ular qoʻlida edi”.¹

Arab bosqini Markaziy Osiyoda mahalliy dini siqib chiqarishi barobarida islom madaniyati yunon, eron, hind madaniyati bilan boyigan. Markaziy Osiyo madaniyati ilm fani bilan takomillasha borgan. Oʻrta Osiyo allomalarining asarlarida asosan insonni barkamol qilib tarbiyalash masalasi birinchi oʻringa qoʻyilgan. Maʼlumki axloq mutloq tarzda emas, balki nisbiy shartli ravishda ikkita katta qismga boʻlingan, birinchisi – dunyoviy axloq. Buni biz shakllarda koʻrib chiqamiz.

Dunyoviy ahloqning ilmiy meʼzoni amalda mavjud boʻlgan obektiv olamda namoyon boʻladigan real jarayonlardir. Axloqning bu jarayonlari Oʻrta Osiyo mutafakkirlari ijodlarida bayon etilgan.

Ana shulardan kelib chiqqan holda mazkur boʻlimda quyidagilarga eʼtibor qaratishni asosiy maqsad qilib oldik.

Birinchi – hadislardagi insonparvar gʻoyalarni, axloqiy fazilatlarini mamlakatimizdagi mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan dinimizning ilmiy mandalari- “Al-jami as-sahih”, “Al adab, al-Mufrad”, “1001 – hadis” “Shamoyili-Muhammadiya va boshqa diniy axloq manbaalari shular jumlasidandir. Bularda insonga xos axloq suvi bilan havodek zarurligi, uni boshqa jonzorlardan farqlaydigan asosiy sifatlaridan biri ekanligi, u maʼrifatning uzviy tarkibiy qismidan iboratligi taʼkidlangan.

Ikkinchi, Qurʼoni Karimdagi axloqiy- estetik tamoyillarning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, axloqiy oʻgʻitlar davlatimizning axloqiy tarbiya sohalarida yuritayotgan siyosatning asoslaridan biri sifatida qaralishiga erishish.

¹ Marshax B.I. Sagdiyskaye serebro. A. 1971-c-88.

Uchinchidan – hadislarda bilim olish ilm egallash kasb hunar o'rganishga doir da'vatlarning ijtimoiy ahamiyatini bugungi kunda mamlakatimizda ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan ishlar orqali ko'rsatib berish.

To'rtinchidan – hadislarda tilga olingan axloqshunoslikning yaxshilik va yomonlik, beg'arazlik va xasadgoylik, sahovatpeshalik va xasislik, oriyatlilik va uyasizlik singari mezoniy tushunchalari tamoyillarini yangicha tafakkur bilan tushntirish.

Beshinchidan, inson kamoloti va ma'naviyati shaxsning, shaxsning insonlararo axloqiy estetik va madaniy munosabatini Islom dinining muqaddas manbaalari – Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda bayot etilgan o'gitlar, g'oyalar va yo'nalishlar orqali ko'rsatib berishga erishishdan iborat. Hadis axloqsizlik mo'minlar uchun g'oyat sharmandali, oxiratda qattiq azob beriladigan qusur ekanligi, insonni axloqiy komillikka yetkazish diniy va dunyoviy bilimlarning vazifasi ekanligi, dinpeshvolari axloqda hammaga ibrat bo'lishlari shartligi qayta-qayta uqtirilgan, “Al-Adab Al-Mufrad”da yaxshi xulqli bo'lish haqidagi pand nasihat, davlat, maslahat bayon etilgan. Ulardan biri “Sizlarning yaxshilaringiz – axloqli bo'lganlaringiz” deyilgan. Ulardan ikkinchisida Payg'ambar (s.a.v)ga eng yaqin bo'lganlar “... axloqda yoqimliroq bo'lganlarimizdir” deyilgan. Uchinchisida esa Payg'ambar (s.a.v) “Men yaxshi xulqlarni kamolotga yetkazish uchun Payg'ambar bo'lib keldim” deyilgan.

Zamonasining ilg'or kishilari insonparvarlik g'oyalarini muttasil targ'ib qilganlar. Buning ifodasi hadislarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bularning aksariyatida shu fazilat baralla yangragan. Hadislarning barcha davrlar uchun tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda dilozorlik qoralanib, mo'minlarga ozor bermaslik, ularning izzat nafsig, or-nomusiga

tegmaslik kabi axloqiy o'g'itlarga katta e'tabor berilganligida. Hadislarda "Musulmonning yaxshisi boshqa musulmonlar uning tili va qo'lidan ozor topmagan kishilardir" deyiladi, shuningdek, "Odamlarning yaxshisi boshqa odamlarga manfaatlirog'idir" deb uqtirilgan. Demak har bir haqiqiy inson o'zgalarga yordam qilishi insonparvar muruvvatli bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Bu o'gitga quloq solgan ya'ni amal qilgan ajdodlarimizning aksariyati dehqonchilik, tijorat hunarmandchilik bilan shug'ullanib ilm-ma'rifat tarqatganlar. Hadislarda axloqsizlik, hayosizlik beodoblik singari illatlar qattiq qoralangan, ularga nisbatan loqayt va befarq bo'lish tanqid qilingan. Bunday qoralash "dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan, menga nima, nima ishim bor" qabilida fikr yurituvchi kimsalarni axloqiy yo'naltirishga qaratilgan fikrlardir.

Islom axloqiy jihatlardan xulqli, fazilatli bo'lgan kishi taqvodor, chin musulmon ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Shuningdek, hadislarda uzr aytish masalasi ham Muhammad (s.a.v) e'tiborlaridan chetda qolmagan. "uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni kamaytiringlar", "uzr aytiladigan ishni qilma" –deydilar. Hozirda bu hadis "Keyini dushman o'zinga dushman" degan maqol tarzida o'zining ahamiyatini namoyon qiladi.

Insonparvarlikning bo'lgan bir ko'rinishi, ayollarga, ayniqsa onalarga hurmatda bo'lish ularni e'zozlash Payg'ambarimizning hadislarida ta'kidlanadi.

Masalan: bu fazilatni quyidagi hadisda yaqqol ko'rish mumkin: "ayollarni faqat ulug' odamlar hurmat qiladi. Ularni pastkash odam xo'rlaydi" deyilgan.

Hadislarda komil insonni tarbiyalashdagi eng katta ahamiyatlari esa ularda ilm-fan, bilim hunar o'rganishga qaratilgan da'vatlardir.

“Har bir musulmonga talabi ilm qilish farzdir” deb ilgari surilgan o’git, tavsiya, nasihat sunnat darajada ya’ni bajarilishi ixtiyoriy ekanligiga qaramay, ilm olish farz deb hisoblangan, demak bu “tolibi ilm”likka majburlik maqomi berilgan. Demak Payg’ambarimiz (s.a.v) dunyoviy bilimlardan boxabar bo’lish ilmsizlik va axloqsizlikning debochasi ekanligi oqilona tushungani uchun ilm olishni farz tushunchalar sirasiga kiritgan. Insonning barkamol bo’lib o’sishini shakllanishidagi ahamiyati shundaki, ular qanday xususiyatlarga ega bo’lgan odam yaxshiyu, qanday insonlarga ega bo’lgan kimsa yomon ekanligi ham ko’rsatilgan axloqiy fazilatlarining yana bir xususiyatlaridan biri kamtarinlik, xislati nisbatan kamroq tilga olingan, axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi, bu jihatdan kiyinishda, yurish turishda muomalada kamtarin bo’lish zarurligi haqida ilgari surilgan hadislarning ko’pdan–ko’p foydasi bor.

Imom Buxoriyning “Al-Adab, Al-Mufrad” asarining “Takabburlik haqida”gi bobda kibrlanish qoralanib, kibrning ma’nosi haqiqatni, to’g’ri so’zni tan olmaslik va boshqa kishilarni o’zidan past hisoblashgan deb bilganlar.

At-Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” kitobida keltirilgan hadislarda odamlarni g’azabli, dilozor bo’laslikka va odamlarni haqorat qilmaslikka chaqirib “g’azab odam bolasi ichida yonib turgan cho’g’dir. Biror odamda g’azab paydo bo’lsa, yerga o’tirsin. Kishilarning yaxshilik g’azabi sekin kelib, rizoligitez ketuvchidir. odamlarning yomoni g’azabi tez kelib rizoligi sekin ketuvchidir. Boshqa bir hadisda “Tilni yaxshilagan bandaga Alloh rahmatini bersin” degan ko’rsatma bor. Shuni ta’kidlash joizki gazab borasidagi hadislarda murosayu- mudora tamoyili ustuvorlik qiladi. Chunonchi, hyech qachon hyech kimni so’kma g’azabing kelsa jim bo’l, g’azabing tik turgan bo’lsang o’tir, agar g’azabi kesa xo’p, ketmasa

yotib olsin, degan buyruq ham bor. Haqorat esaislomdagi eng yomon gunoh hisoblangan, sudxo'rlilik bilan qiyoslanib haqorat undan ham yomon ekanligi uqtirilgan.

Mo'minlarning bir-birlarini haqorat qilishlari or nomusini haqorat qilishidir.

X-XII asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodida axloqiy ma'naviy qadriyatlarning milliy xususiyatlari to'g'risida ta'limotlar yaratgan.

Sharqda rivojlangan va umuminsoniy madaniyat poydevorini yaratgan buyuk olimlar Beruniy, Ibn Sino, Ibn Tufayl, al-Kiftiy, Abn Ro'shd va boshqa ko'plab olimlar ijodining shakllanishi va rivojlanishida ta'mal toshi bo'ldi. Farobiyshunos olim M.Xayrullayev allomaning axloqiy qarashlari haqida "insonparvar mutafakkir sifatida kelajak jamiyatning urushlar, qashshoqlik, ekspluasiasiz bo'lishini, umumiy baxt, adolat g'alabasi, huquq tengligi, do'stlik, o'zaro yordam bir-birini hurmatlash, yuksak madaniyat bo'lgan yer kurrasini yaxlit jamiyat sifatida tasavvur etadi"¹

Keltirilgan dalillardan chiqariladigan xulosa shuki, agar kishida diniy ma'rifatga ixlos, ahloqiy go'zallikka rag'bat bo'lmasa, davrning sinovlari, yaxshi-yomon ishlarning mohiyatini anglab hayotdan ibrat olmasa, ma'naviy barkamollik haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas.

Shaxsning barkamolligida diniy va dunyoviy fazilatlarining kamol topishi, shaxs ma'naviy qayofasining tom ma'noda shakllanishiga ham ta'sir qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezident Islom Karimovning "Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi" degan so'zlari bizning

¹ Xayrullayev M. Abu Nasr Farobiy, M, 1982, c-29.

tadqiqotimizning konseptual nazariy asosi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki aynan ma'naviyat islom qadriyati va ma'rifatidan ozuqa olishi va shaxs amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi ham turgan gap.

Ana shu mantiqiy aloqadorlikni chuqur anglab olish uchun ahloqning ma'naviyat tizimidagi o'rnini alohida tahlil etish zarur, deb hisoblaymiz. Negaki ahloqni mohiyatan inson fe'l-atvori, xulqi, amaliy faoliyatini tashkil etuvchi zanjirning ikki uchini bir-biriga bog'lovchi asosiy xalqaga qiyoslash mumkin. Ana shu xalqaga tushuvchi boshqa bug'inlar, ya'ni axloqiy qadriyatlar u bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Agar ana shu bog'lanishda uzilish bo'lsa, o'zining tortilish kuchi qonuniyatidan chiqib ketgan yulduz kabi parchalanib, yo'qlik qa'riga singib ketadi. Bunga din va diniy ma'rifat va qadriyatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'layotgan diniy oqimlar, xususan diniy ekstremistik guruhlarining kelib chiqishini misol qilib keltirish mumkin.

Bu oqimlarning paydo bo'lishi ular tomonidan diniy aqidalarning mutloqlashtirilishi bilan bog'liq. Bu mutloqlashtirish faqat axloqiylik chetga suriyu qo'yilgan holatdagina yuz beradi.

Aqidaparastlar dinning Alloh tomonidan belgilab qo'yilgan vazifasini – axloqiy yuksak, komil insonni tarbiyalash uchun xizmat qilishini inkor etadilar, bu bilan guyo dinni yuksakka ko'tarmoqchi bo'ladilar.

Nafaqat diniy e'tiqod, balki barcha ma'naviy xodisalar shaxsan ahloqiylikni talab etadi.

Dinning bu ilohiy manbalarida qayd etilgan fikrlarning barchasida islom qadriyatlari o'z mohiyatiga ko'ra haqiqatda ham ibrat manbai

ekanligini va u insonning ruhiy ehtiyojini qondirishga xizmat qilishini anglatadi.

Tasavvur eting, inson kimgadir yaxshilik qilgisi keladi. Bu hol ayni paytda uning o'zi ham yaxshilikka, mehrga mushtoq ekanini bildiradi. Shu bois u yaxshilik qiladi-yu, buning evaziga o'ziga mehr-quvvat oladi, ruhiy ehtiyojini qondiradi. Shu ehtiyojni qondirish jarayonida insonning xayrli amallari, ezgu faoliyati shakllana boradi.

Shu o'rinda nozik bir jihat bor. Ya'ni inson ruhidagi ezgulik ehtiyoji naqadar zo'r bo'lmasin, u mutloq ezgu faoliyat sifatida namoyon bo'lolmaydi. Har qanday ezgu faoliyat ham faqat ayrim guruh va kishilarning ehtiyojini qondirishi mumkin, ammo barchaga birdek ma'qul bo'lolmaydi. Buning sababi shundaki, inson ruhidagi bir daf'alik ehtiyoj mahsuli o'laroq yuzaga kelgan faoliyat barchani birdek qondirsa va hammaning olqishiga sazovor bo'lsa edi. Unda insonning keyingi ruhiy ehtiyojlari uchun hojat qolmas, u o'z missiyasini (vazifa) o'tab bo'lgan bo'lar edi. Ruhning kamoloti ham, vujudning takomillashuvi ham shu bilan barham topar edi. Barkamollashish imkoni tugagan ondan esa inson ruhsiz bir maxluqqa aylanadi.

Demak, insondagi barcha ehtiyojlar kabi, ezgulik ehtiyojining mahsuli bo'lgan faoliyatdan qoniqish bir zungina va ayrim guruhlariga tegishli bo'lishi mumkin. Ammo insoniy takomilning keyingi bosqichida u boshqa bir jihatdan yuz ko'rsatadi. Odamzot bu ehtiyojni har gal yangi va yuksakroq bosqichda qondira borgani sari, o'zi ham yuksalgandek bo'ladi, aqlu shuuri tiniq tortib, ruhi poklanadi.¹

Zero, o'tmishda ham, bugungi kunda ham xorijiy dunyo, ayniqsa, musulmon olami Movarounnahr madaniyati va fanidan bahramand

¹ Mirzo Qarshiboy. Taloto'pdan uyg'unlik sari. –T., “Ma'naviyat”, 1998, 5-6 betlar.

bo'lgan hamda ta'sirlanib kelgan. Bu hol ayniqsa «o'rta asrlar» degan sifat bilan tarixga kirgan davr uchun xos bo'lgan. Ayni shu davrda bizning yurtimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Darimiy kabi peshvo muhaddislar, Imom al-Moturidiy, Abulmu'in an-Nasafiy kabi mutakallim-ilohiyotchilar, Burhonuddin al-Marg'iloniy kabi faqihlar yetishib chiqdilarki, ular yaratgan o'lmas asarlar musulmon dunyosi hayotini tashkil etishning dasturilamaliga aylandi.

Islom ilmi va qadriyatlarini yuksaklarga ko'targan allomalarimiz ibrat yo'lining inson fazilatlarini kamolga yetkazishdagi o'rni va ta'siri katta. Bu xususda to'xtalar ekan, I.Karimov: «Xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Oллоh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi...»¹ deb ta'kidlagan edi.

Garchi musulmonlar yunon, eron, hind madaniyatlari durdonalaridan foydalangan bo'lsalar-da, lekin islom madaniyati tushunchasi Qur'oni Karim va hadisi sharif bilan hamisha chambarchas bog'liq bo'lganligining o'zi fikrimizga dalildir. Ulug' muhaddislar hadis ilmini Payg'ambarimiz Muhammad SAVning ibratli hayotini o'rganishdan boshlaganligida ham katta ma'no bor.

Binobarin, Rasululloh siyratini o'rganish hadislarning diniy va dunyoviy hayotdagi roli beqiyos katta ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning «Al-jomi' as-sahih» (ishonchli hadislar) to'plami «Al-Adab al-mufrad» to'plamlariga kiritilgan hadislar aynan ibrat masalasidagi islom ilmi manbai ekanligini ta'kidlash zarur.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 36-37.

«Al-Adab al-mufrad» (Adab durdonalari») imom Buxoriyning axloq va odob masalalariga doir hadislarni o'zida jo qilgan eng nodir asarlaridan hisoblanadi. U ikki yuz oltmish yetti bobdan iborat anchayin salmoqli asardir¹.

To'plamga kiritilgan hadislarning mazmunini jiddiy o'ylab ko'radigan bo'lsak, ular eng oliy qadriyatlarni kasb etishga chaqirilgan da'vat ekanligiga amin bo'lamiz.

Ana shu qadriyatlar zamirida inson axloqiy fazilatlari takomiliga xizmat qiluvchi ibrat manbai mujassamdir.

Binobarin, hadislar tijorat ahlini xalol bo'lishga chaqiradi, chunki Payg'ambarimiz halol savdo qiluvchilar Qiyomat kuni eng mo'min odamlar sirasiga kirishini uqtiradi.

Hadislar ishchilarni o'z yumushlarini oliy darajada bajarishga chaqiradi, zero, «Alloh boshlagan ishini yaxshi qilganlarni yaxshi ko'radi».

Hadislar hunarmandlarni, ayniqsa, ular oldindan muayyan mablag'ni olib qo'ygan bo'lsa, o'z ishlarini sidqidildan bajarishiga da'vat etadi, chunki «Alloh Qiyomat kuni oldindan mablag' olib qo'ygan odamdan o'z ishini bajardimi yoki yo'qmi, albatta so'raydi».

Hadislar ota-ona, aka-ukalar va aka-singillarni oiladagi o'z burchlarini jamiyatdagi kabi mukammal ado etishga chaqiradi, chunki «jamiyatning har bir a'zosi o'z zimmasidagi majburiyatlar uchun mas'uldir».

Hadislar odamlarni rostgo'y bo'lishga chaqiradi, ilohiyot haqiqati shundan iboratki, «doimo rostgo'y bo'lgan odamgina Alloh taolo

¹ Qarang: Boboyev X., Gofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. –B. 45.

tomonidan mo'minlar qatoriga kiritiladi». Hadislar odamlarni mehribonlikka chaqiradi: «Yer yuzidagilarga mehr-shafqat ko'rsating, samoviy va aroziy olamlar Parvardigori ham sizlarga shafqat qiladi».¹ Qur'oni Karim va Sunani sharif bulardan boshqa ezgu qadriyatlarga ham da'vat etadiki, turli asr olimlari ularni sharhlashga juda ko'p kuch sarflaganlar.

Ularning mehnati samarasi o'laroq hadislarning inson fitrati (tabiati) fe'l-atvorini o'nglashga xizmat qiluvchi ibratli bayonlar berilganki, u bugungi kun uchun ham g'oyat qimmatlidir. Bozor munosabatlari asosida mamlakatimizda rivojlanish jarayoni ketayotgan ekan, kishilararo ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy munosabatlarda ana shu hadis talablariga rioya etish har bir ongli insonni o'zi umrguzaronlik qilayotgan jamiyat va xalq oldida insoniy burch hamda mas'uliyatini teran anglashga olib keladi.

Ayniqsa, jamiyatimizda alohida soha vakillari, muayyan kasb egalari o'z faoliyatida, xususan, savdo-tijoratchilik faoliyatida shariat ahkomlari, halol va haromga munosabatlarining me'yorda shakllanishida hadislar, turli pand-nasihatchilik o'ld risolalar, mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy, diniy-tasavvufiy qarashlarida asoslangan fikrlari bu kasb egalari uchun nihoyatda ibratlidir.

Sir emaski, hozirgi o'tish davrida savdogarlar, ishbilarmonlar orasida salbiy hatti-harakatlar, musulmonchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar, axloq va xulq-odobga zid muammolar uchrab turibdi. Bular – xaridorning haqiga xiyonat qilish, tarozidan urib qolish, aldanchilik,

¹ Sattiyev I.M. Imom Al-Buxoriyning «Al-Jomi' As-Sahih»i-musulmonlar hayotining yo'lchi yulduzi. Zamonamiz ulamolari. – Toshkent, 2001. – B. 52-53.

firibgarlik, hiylakorlik, dehqonning molini arzon bahoda aldab sotib olish va hokazolardir¹.

Shuning uchun, bizningcha, hadislardagi qimmatli fikrlarni, ibratli so'zlarni iloji boricha xalq orasiga yoyish, tijorat xodimlari, tadbirkorlarni ular bilan tanishtirish foydadan xoli bo'lmaydi. Ayni paytda jamiyatimizning har bir fuqarosi ruhiyatiga hadis hikmatlarini singdirish zarur deb o'ylaymiz.

Hadislarda mol-dunyoga hirs qo'yishning inson uchun omad emas, ofat keltiruvchi illat ekanligi haqidagi ibratli misollar ham shaxs axloqiy fazilatlarining kamol topishiga xizmat qiladi. Hadislarda qayd etilishicha, «bandaning molu dunyoga qo'ygan hirs ikki och bo'rining qo'y podasiga qilgan tajovuzidan ko'ra zararliroqdir. Zero, bu bilan u o'z dini-imoniga putur yetkazadi»². Islomda iymonga putur yetkazish eng katta illatdir. Zero, iymon basalomatligi yaxshi amallar bilan mustahkamlanadi. Ahli sunna aqidasi ko'ra, asli iymon ortmas, kamaymas ham. Ammo Nuri iymonning ortishi va iymonning ortishi va iymonning foydasi amal bilandir. Islom-hidoyat ilmining yetuk namoyandasi So'fi Olloyor yozganidek:

Amalning na'fi ham iymon bilandur,

Qachon yolg'iz amal qilg'on bilandur?

Nouzi billoh iymonsiz kishini

*Qabul etmas xudoyim hyech ishini.*³

Islom ilmi va ma'naviyatimizning mashhur namoyandalari asarlarida ham shaxs ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ularda insonning qadr-qimmati inson qalbining pokligi, undagi imon va

¹ Qarang: Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. – Andijon, 2003. – B.101.

² Axloq-odobga oid hadis namunalar. – Toshkent, 1990. – B. 198.

³ “Risolai Aziza” – “Sabot ul-ojizin” shahri. T., Xalq merosi, 2000, 37-bet.

qilgan ezgu ishlari bilan o'lchanishi alohida qayd etilib, ezgu amallarga amal qilishga da'vat qilingan.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi ilohiy silsila eng avvalo insonning bu foniy hayotda yashashi davomida bilib-bilmay gunoh qilishi, gunohlardan forig' bo'lmoq uchun dildan tavba qilishi hamda ezgu, xayrli ishlarni qilib, o'z umrining o'tkinchiligini his etgan holda o'tmishidan ibrat olib yashashi zarurligi masalasiga katta o'rin berilgan. Bu zaruriyatni u quyidagicha ifodalaydi:

*Gunohingga tavba qilib yig'lab yurg'il,
Ketaman deb yo'l boshig'a borib turg'il,
Ketganlarni ko'rub sen ham ibrat olg'il,
Ibrat olsang, yotmish yering bo'lur gulzor¹.*

Inson hayoti davomida yaxshi xulqli va fazilatli insonlardan, inson ruhiyatini ziynatlaydigan voqyelikdan, tabiatdagi uyg'unlikdan, ajdodlar merosidagi ma'naviyatdan ibrat olish orqali pokdomonlik va komillik zinasiga ko'tariladi hamda g'azab, nafrat, kibr-havo, hasad, badnafslilik kabilardan forig' bo'lib boradi.

Bu xususda H.Hafziy shunday yozadi: «Dardu baloga yo'liqqanlar ibrat bo'lsin. O'z vaqtida sodir bo'ladigan ziyonni bevaqt kelgan foydadan afzal biling. Odamlar bilan murosai madora qiling. Do'st-yoronlar bilan inoq bo'ling, o'z andozangizdan tashqari oyoq qo'ymang»².

Islom qadriyatlari va ma'rifatida shaxs ma'naviyatiga munosabat ko'proq shaxsning axloqiy dunyoqarashi hamda dinu diyonat, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarida alohida ko'zga tashlanadi. Xususan, tasavvuf ta'limotining ko'zga ko'ringan namoyandasi,

¹ Qarang: Ahmad Yassaviy. Devoni xikmat. – Toshkent, 1977. – B. 60.

² Hikmat durdonalari. –Toshkent, 1993. – B. 5.

Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband merosidan bunga ko'plab asoslar keltirish mumkin.

Bu tariqatning ikki tomoni bor: Birinchisi – axloqiy jihati: u zamindan, xalqdan, mehnatdan uzilib qolmaslikka, ma'rifatga erishishga va jaholatga, zulmga qarshi kurashishga, biron-bir kasbning boshini tutishga, o'zgalarga axloqiy namuna bo'lib yashashga chaqiradi. Ikkinchisi – ilohiy jihati: u axloqiy qismatga da'vat etadi. Bu tariqatning yana «Xilvatda – shuhrat, shuhratda ofat» degan aqidasi ham diqqatga sazovor. Xilvatda faqat o'zini o'ylab, ertadan kechgacha ibodat qilishda ham g'araz bor: bu, birinchidan, kishining jannatdan eng avvalo o'zi o'rin olishi uchun tirishib-tirmashishi bo'lsa, ikkinchidan, xudoga xudbinlik orqali yaxshi ko'rinish va, uchinchidan, odamlar ko'ziga o'zini zo'r qilib ko'rsatish, ya'ni shuhrat orttirishdir. Shuningdek, bu tariqat avvalo ziyolilarga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Uning «Agar mamlakat xarob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, haqiqat ahli nazdida bu darveshlarning – ziyolilarning, ilm ahlining gunohidir», «Hyech kimdan xafa bo'lma va hyech kimni xafa qilma», «O'lik sherdan tirik mushuk afzal» singari hikmatlar ham hyech qachon o'z kuchini yo'qotmaydi¹.

Shu o'rinda Muhammad Muso al-Xorazmiyning fikrlarini keltirmoqchimiz: «O'tmish davrlarda o'tgan odamlar fanning turli tarmoqlari sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutganlar... ulardan biri o'zidan avvalgilaridan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi...va o'zi qilgan ishidan

¹ Qarang. Dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam. Akademik I.Sulton bilan A.Sher suhbatini // Sog'lom avlod uchun. – Toshkent, 1996. – № 1.

mag'rurlanmaydi».¹ Bu so'zlar barcha olimlar, ma'rifatli kishilar uchun ibrat manbai bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz merosini, ular yaratgan qadriyatlarni chuqur anglab, kelgusi avlodga yetkazish hozirgi avlodning axloqiy burchidir.

Shu ma'noda har bir alohida inson- har qanday jamiyatning mavjudligi va barhayotligini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy unsurdir. Bu insonning individual shaxsiy xatti-harakati, ya'ni biror guruh, qatlam, qavm, elat, xalq va millat doirasidagi, oila va turmushdagi, muayyan jamiyat miqyosidagi faoliyati, yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, avvalo, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Hulosa qilib aytish mumkinki, diniy qadriyatlar o'ziga xos milliy hususiyatlari uzoq tarixiy jarayon asosida shakllanib, shaxs ma'naviy komolotida muhim o'rin tutadi. Aytish mumkinki, diniy va dunyoviy qadriyatlar sifatida tan olingan ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, millatararo do'stlik va hamjihatlik, sabrlilik kabi insoniy fazilatlar kamol topishiga xizmat qiladigan tushunchalar diniy qadriyatlarning milliy hususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

BMIda mushohada qilingan nuqtai nazarlarga tayanib, diniy qadriyatlar va ular shakllanishining quyidagi omillarni e'tiborga olish zarur ekanligi ayon bo'ldi:

– Mustaqillik yillarida milliy mentalitetimizda sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlarning tabiiy, ijtimoiy, tarixiy ildizlarini chuqurroq o'rganish, uning shaxs ma'naviy dunyosini boyitishdagi o'rnini tahlil qilish dolzarb muammodir;

¹ Muhammad Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 59.

– o'zbek xalqi e'zozlaydigan saxovat, mehr-muxabbat, rahm-shafqat, ehtirom va oliyjanoblik, yaxshilik va ezgulik kabi insoiy fazilatlarining shakllanishida diniy qadriyatlarning roli katta;

– diniy qadriyatlarimiz zamiridagi inson kamoloti va iymon salomatligi haqidagi qarashlar zamonaviy yoshlarning hayotda o'z o'rni, kasb-kori va mavqeini egallashda bitmas-tuganmas tarbiya xazinasini bo'lib xizmat qiladi.

II bob. Mustaqillik sharoitida diniy qadriyatlarga yangicha munosabat va uning shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rni

2.1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda din va diniy qadriyatlarga yangicha munosabat.

Islom kishilarda ishonch xissini mustahkamlangan, ularni poklab hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarda ko'maklashgan.

Umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avlodan-avlodga yetkaxishga yordam berib kelgan. Din, shu jumladan, islom dini ham, - deydi O'zbekiston prezidenti – ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga hos bo'lgan bir qancha vazifalarini ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy ahloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashganva ko'maklashmoqda".¹

Islom ta'limoti juda katta ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, milliy va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan sobiq sho'ro tuzumi davrida uzoq yillar davomida xurofot va bid'at sifatida talqin qilindi, xalq uchun afyun deb ataldi. "Sobiq SSSR dagi hukmron kommunistik partiyaning jilovbardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblar edi. Minglab masjidlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Bu obidalarning

¹ I.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.-O'zbekiston; 1998, 44-bet.

ko'pchiligi xalqimiz uchun sivilizasiyasi uchun bebeho me'moriyva tarixiy qadriyat hisoblanar edi. Dindorlar ommasining aksariyat ko'pchiligi 90-yillarning o'rtalariga qadar Qur'oni Karimdan bahramand bo'lolmagan edilar".

Qur'oni Karim va Payg'ambarimizning muborak Hadislari: taqib ostiga olindi. Islom ta'limoti asoslaridagi odob-axloq, ilm-fan, madaniyat, ma'naviya, ma'rifatga oid milliy va umuminsoniy qadriyatlar, g'oyalar vat a'limotlardan foydalanishga yo'l berilmadi.

O'zbek xalqining milliy an'analari, urf-odatlar, o'ziga xos marosimlari, ko'pgina qadriyatlari ta'qib va tazyiq ostiga olindi. Marhum va marhumalar xotirasini eslash bilan bog'liq bo'lgan milliy urf-odatlarimizga va hattoki milliy liboslarimizga ham qarshi chiqishdi.

Bular ham yetmaganidek, arab imlosida bitilgan har qanday asarlar so'rab-surishtirib o'tirmay yo'qotildi. Masjid va madrasalar turli niqobi ostida butkul buzib tashlandi. Sobiq SSSR o'zini butun dunyoga dahriylar mamlakati deb e'lon qildi.

O'tmishni hadeb yomonlayverib, badnom qilaverib, dinni afyun, islomni zararli illat deyaverib, milliy urf-odatlar, an-analar, rasm-rusumlar va marosimlarni to'xtovsiz qoralayva o'tmishga qarab tosh otaverib, shu darajaga yetdiki, natijada odamlardan imon-e'tiqod ko'tarila boshladi, birovlarning haqqiga xiyonat qilish, jinoyat yo'liga kirish, ijtimoiy adolat qoidalarini buzish, mansabni suiste'mol qilish, ta'magirlik, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik, ma'naviy axloqiy jihatdan buzilish-aynish, milliy til va qadriyatlarni nazar pisand qilmaslik odatdagi hodisaga aylandi, o'rtadan mehr-oqibat ko'tarila boshladi, milliy faxr-iftixor va milliy o'zlikni anglashning o'sishiga darz keta boshladi, baynatmilalchilik esa chuqur tomir otib, avj olibrivojlana boshladi.

Har qancha ta'qiq va tazyiqlar, qatag'onlarga qaramay, xalqimiz shu dinu-diyonati, ma'naviyatini asrab avayladi. Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, - Biz musulmon dunyosining uzviy qismimiz. Tariximizning eng fojeali, eng og'ir davrlarida ham, mustabid tuzum changalida bo'lgan paytimizda ham, bizni dinimizdan ayirishga, unga xiyonat etishga majbur bo'lganlarida ham xalqimiz hych qachon o'z islomiy e'tiqodidan qaytmagan. Boshiga qilich kelganida ham ota-bobolarimizning muqaddas dini bo'lmish musulmonchilikka hamisha sodiq qolgan.

Biz, shiori ezgulik bo'lgan butun dunyoni ahli islom qatori dinimizni doimo pok vas of saqlashga intilib kelganmiz va buy o'ldan also qaytmaymiz. Shuning uchun ham dinimizdan har xil g'arazli va nopok maqsadlar yo'lida foydalanishga mutlaqo qarshimiz.¹

O'zbekiston davlat mustaqilligi tufayli tilimizni, dinimizni, milliy urf-odatlarimiz va ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy qadriyatlarimizni yo'qolib ketish xavfidan saqlab qoldik. Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmoqdi. O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hych bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalarga nisbatan biror-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Respublikamizda din davlatdan ajratilgani bilan jamiyatda ajratilgan emas. Binobarin, jamiyatning ma'nabiy hayoti bilan diniy munosabatlarni uyg'unlashtirish taqazo etiladi. Islom Karimovning asarlarida dunyoviy jamiyat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda davlatning din bilan

¹ Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. – O'zbekiston, 1999, 185-bet.

munosabatining mazmuni-mohiyati, asosiy tamoyillari quyidagicha belgilab berilgan:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqorolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqorolarni ham, ularga amal qilmaydigan fuqorolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.¹

Davlatimizning dinga munosabati din va adin ahlining ijtimoiy hayotda tutgan muhim o'rnini, insonlar o'rtasida mehr-oqibatni o'rnatishda katta xizmat qilayotganligini, odamlarni doimo yaxshilikka, ma'nabiyat va ma'rifatga, ezgu-ishlarga chorlab ketayotganligini e'tirof etishga asoslangan.

Davlat dinning O'zbekiston fuqarolarini tarbiyalashdagi imkoniyatlariga ishonadi, bizning davlatimiz dinning bundan buyon ham barcha odamlar, fuqarolarni halol-pok yashashga, beg'araz, insofliq, kechirimli, hamjihat, ahil bo'lishga, vatan, xalq, millat manfaatlarini har qandayshaxsiy manfaatdanbaland turish ruhida tarbiyalashi tarafdoridir. President I.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "davlatning ishi davlatniki, dinning ishi, dinniki bo'lishi lozim. Bu nozik va murakkab

¹ I.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda..... T., "O'zbekiston", 1992, 43-44-betlar.

masalada munosabatlarning o'zaro hurmat va ishonch asosida qurilishi yagona maqbul bo'ldi.

Davlat dindor fuqarolarining diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qavchalik hurmat-ehtirom qilsa, dindorlar ham davlat qonunlari va siyosatini shunchalik hurmat-ehtirom qilishlari shart. Shundagina hyecha kimdan ko'ngli qolmaydi".¹

O'zbekiston davlat mustaqilligi tufayli mamlakatimizda diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Ota-bobolarimiz dini bo'lgan islom diniga kengyo'l ochib berildi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tog'risida" Qonun qabul qilindi.

Ramazon va Qurbon hayitlarini bayram sifatida nishonlayapmiz. Bizda masjidlar tiklanmoqda, Qur'oni Karim ilk marta o'zbekchaga tarjima qilindi.

Har yili necha minglab odam hajga Makkai Mukarrami va Madinai Munavvarini ziyorat qilmoqdalar. O'zbekiston hukumati mo'minlarning istaklarini inobatga olib, musulmon dunyosining eng muqaddas yodgorliklardan biri-xalifa Usmon "Mushaf"ini ulare ixtiyoriga qaytarib berdi. Davlat Hadislarva boshqa diniy adabiyotlarni chop etishda yordam berayapti. Din peshvolari matbuot, radio va televidenya orqali o'z qarashlarini emin-erkin bayon etmoqdalar. Diniy o'quv yurtlari tarmoqlari rivojlanmoqda.

Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, hazrat Bahouddin Naqshband, Ahmad Farg'oniy tavalludlarining dunyo miqyosida tantana bilan nishonlanganligi madaniy-ma'naviy hayotimizda muhim voqyea bo'ldi.

¹ I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin: 2-jild. T., "O'zbekiston", 1996, 198-bet.

Bir soʻz bilan aytganda, din ravnaqi yoʻlida mustaqillik yillarida ulkan ishlar qilindi.

Islom dini insonlarni kamtarlikka undaydi. Bir-birimizni behuda ayblab, men musulmon, sen kofir, deb talashib yurishlar bizga toʻgʻri kelmaydi.

Hamma ahil, hamma pokiza boʻlib yashasin. Kimning fazilati qancha, kimning gunohi qancha ekanini Yaratganning oʻzi ajrim qilib beradi u dunyoda.¹

Islom dini inson kamolotining maʼnaviy-ruhiy zaminiga katta ahamiyat beradi. Bu narsa jamiyat hayotida, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda, farzand tarbiyasida oʻz ifodasini topgan. «Barchamizga yaxshi maʼlumki, – deb yozadi I.A.Karimov, – din azaldan inson maʼnaviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, xaq va haqiqat, insof va adolat toʻgʻrisidagi orzu-armonlarini oʻzida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan gʻoya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir»².

Xalqimiz orasida shunday kishilar koʻpki, ularning yurish-turishi, muomala madaniyati, gap-soʻzi atrofdagilarga donolik va olijanoblik nuriday taʼsir qiladi. Ular bilan muloqot – jonning rohati, ibrat timsolidir. Ammo, afsuski, oʻzlarining xulqu atvori bilan qiliq-qilmishi bilan boshqalarning gʻashiga tegadigan, nafrat uygʻotadigan odamlar ham bor.

Qurʻoni Karimda yaxshilik va pokizalikning naqadar buyuk neʼmat ekanligi, birovga ozor bermaslik, til bilan dilni doimo bir tutish, nochorlarga zakot berish va koʻnglini koʻtarish chin insoniy fazilat ekanligi xususida juda koʻp eslatmalar mavjud.

¹ I.Karimov. Oʻzbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura, T., “Oʻzbekiston” 1996, 26-27-bet.

² Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. – B. 36

Bu jihatdan islom dini – buyuk qadriyat, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan benazir ibrat haqidagi xazinadir. Shuning uchun ham Yevropa olimlari Qur'onni dunyo madaniyatining eng nodir asari deb ta'riflaganlar.¹

Islom dinida har bir kishining izzati, hurmati, demak ibratli bo'lishi uning ilmiga, aqlu farosatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu xususda Muhammad payg'ambar o'z hadislarida shunday fikr bildiradi: “Har bir musulmonga talaba ilm qilish farzdir... Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir”².

Zero, Qur'oni Karimda kishilarni ilimli va bilimli bo'lishga da'vat etuvchi juda ko'p g'oyalar mavjud. Payg'ambarimiz Muhammad (SAV) ga nozil bo'lgan muqaddas Qur'oni Karimning eng birinchi oyati «o'qi» degan so'z bilan boshlanadi. Alloh taoloning bu amri faqatgina «o'qish» degan tushunchani bermaydi. Ko'pgina mufassirlar bu so'zni *bilim yig'* ma'nosida talqin qiladilar.

Zero, o'tmishda ham, bugungi kunda ham xorijiy dunyo, ayniqsa, musulmon olami Movarounnahr madaniyati va fanidan bahramand bo'lgan hamda ta'sirlanib kelgan. Bu hol ayniqsa «o'rta asrlar» degan sifat bilan tarixga kirgan davr uchun xos bo'lgan. Ayni shu davrda bizning yurtimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Darimiy kabi peshvo muhaddislar, Imom al-Moturidiy, Abulmu'in an-Nasafiy kabi mutakallim-ilohiyotchilar, Burhonuddin al-Marg'iloniy kabi faqihlar yetishib chiqdilar, ular yaratgan o'lmas asarlar musulmon dunyosi hayotini tashkil etishning dasturilamaliga aylandi.

Islom ilmi va qadriyatlarini yuksaklarga ko'targan allomalarimiz ibrat yo'lining inson fazilatlarini kamolga yetkazishdagi o'rni va ta'siri katta. Bu xususda to'xtalar ekan, I.Karimov: «Xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri

¹ Xo'jayeva A., Qobiljonova G., Qo'ziboyeva M., Oxunova M. Islom va inson kamoloti. Istiqlol yillari: Milliy-diniy qadriyatlarning xalqqa qaytishi (Andijon). – Toshkent, 2001. – B. 62-63.

²Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 93.

yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi...»¹ deb ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islom dinida mutlaq haqiqat – Xudo amriga bo'ysinib, uning ko'rsatma va hidoyatlaridan bahramand bo'lgan holda hayot va oxirat o'rtasida to'g'ri, haqqoniy va imon-e'tiqodga eltuvchi yo'lni tanlashda payg'ambarlar, avliyo va pirlar, imoni butun va o'ktam ruhoniylar, ilm va bilim ahlidan namuna olishdir;

– islomda diniy qadriyat tushunchasi saxiylik, insonparvarlik, sahovat, mehr-oqibat va yusak pokdomonlikka olib boruvchi ma'naviy malham sifatida talqin etiladi;

– diniy qadriyatlar va unga amal qilish, ergashish shaxsning ma'naviyat ehtiyojlari, aqliy, ruhiy balog'ati va ixlosi, havasi, e'tiqodi va iymoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi va bu narsa axloqiy tarbiyada juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 36-37.

2.2. Ajdodlar axloqiy merosidagi diniy qadriyatlar va uning shaxs tarbiyasiga ta'siri.

Mustaqillik mamlakatni tom ma'noda sog'lomlashtirish, milliy bir butunlikni ta'minlash, ma'naviy yaxlitlik yuzaga keltirish masalasini eng dolzarb masala sifatida belgilab berdi. Bugungi kunning hayotiy zarurati o'z xalqimiz f'el atvori, intilishlarini anglashga jiddiy e'tabor qaratishga undaydi.

Hayotiy tajribasi shundan dalolat baradiki, milliy mentalitetni yangilash va takomillashtirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalgam oshirish ishini asosan ikki yo'nalishda tashkil etish maqsadiga muvoffiq ekanini ko'rsatadi.

Birinchi, azaliy an'analarimiz, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan urf-odatlarimiz, xalqning tili, dini ruhiyatiga qisqacha aytgandas uning duyoqarashiga va tafakkuriga asoslangani unga kishilarimiz ixlosmandligini yuksaltirish bo'lsa, ikkinchisi, umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanishidan iborat.

Har bir kishining alohida shaxsda muayyan bir moddiy yoki ma'naviy omillar ehtiyoji yuzaga kelar ekan, ana shu ehtiyoj zamirida u qondiruvchi suvekt sifatida unga ixlos hamda ixlosmandlik paydo bo'ldi. Shaxsiy ehtiyojlar keng ma'noda tarkiban moddiy; ijtimoiy va ma'naviy faoliyat jarayonidan bir muncha farq qiladi. Gap shundaki qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar har bir odamda moddiy ehtiyojlar bilan birga ma'naviy ehtiyojlar ham mavjud.

Ma'naviy ehtiyojlarning muhim ko'rinishlardan biri ham baxtli hayot orzusidir. Agar ma'naviy ehtiyojlar ijtimoiy nuqtai nazardan tasnif qiladigan bo'lsak, ular mafkura va madaniyat shaklida ko'zga tashlanadi.

Shu bois ajdodlar merosini o'rganishga bo'lgan ixlosmandlikning kuchayib borishi shaxs ma'naviyati hamda dunyo qarashini boyitishga, ularni yurtboshimiz ta'kidlagan uch buyuk qadriyat: axloq-odob ma'naviyat hamda ma'rifat asosida tarbiyalashga samarali ta'sir o'tkazadi.

Chunki, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan meros, xususan diniy va axloqiy manbaalar tom ma'nodagi ilmiy va ma'naviy xazinadir. Binobarin, qadimgi madaniy merosimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bo'lmaganda, hozirgi turmush tarsi ham bo'lmas edi. Shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan xalq an'nalari ajdodlarimizning diniy va axloqiy merosidagi boy manbalar jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan buyuk hissa bo'lib hisoblanadi. Uning ko'p tomonlari mahaliy qobig'dan chiqib xalqaro ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalqining milliy diniy an'analari, axloqiy merosi avloddan-avlodga, bobodan-otaga, otadan-bolaga o'tib kelmoqda va yoshlarni tarbiyalashda katta rol o'ynamoqda.

(O'zbek xalqining milliy diniy) Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki o'tmish va ma'naviy merosini o'ziga singdirmoqda ajdodlar merosini qadrlay olmagan millatning e'tiqodi sust g'oyainoaniq bo'ladi. Ma'lum ma'noda ajdodlar merosi unga vorislikni teran anglash har bir millat yoki xalqning kelajagini aniq belgilab olish imkonini ham beradi.

Ulug' marifatparvar M.Bexbudiy bekorga, "Moziy istiqbolning tarozusidir"¹ deb ta'kidlamagan edi. Ma'na shu xususiyatlarga ko'ra ajdodlar merosini o'rganish davr taqazosi ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹ Qarang: Sharq yulduzi. 1992, T.: 1999, № 10, 173-bet.

Shu bilan bir qatorda mustaqil davlatimiz bozor iqtisodiyotigabosqichma-bosqich o'tib borayotgan bir sharoitda ayrim yoshlarimiz ongida xatti-harakatlarni salbiy holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Ularni bartaraf qilish uchun esa iqtisodiy ijtimoiy sohalardagi vazifalar bilan birga mafkuraviy jarayondagi vazifalarni qat'iyat bilan yoshlarimizning ongi qalbiga singdirib milliy istiqlol manzarasining asosiy tushuncha va tamoillarining ularning harakatda turlariga aylantirish zarur. Buning uchun esa "Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmay xissa qo'shgan olim va fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotiagi ahamiyati haqida qoldirilgan ilmiy meroasi falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish va halqimiz ongiga singdirish zarur". Zotan azal-azaldan ajdodlar merosining g'oyaviy negizi shaxs tarbiyasi uning manaviy ehtiyojlariga davogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lib kelgan. Ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan eng muhim masalalar qatorida joy olib kelmoqda. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalgam oshirilayotgan barcha o'zgarishlar ham inson kelajagi uchun xizmat qiladi.

Demak zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy diniy hamda axloqiy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik ajdodlar merosini o'rganishning amaliy ahamiyatini asoslab beradi.

Sobiq ittifoq mafkurasining tanazzuliga maxkum tomonlaridan biri shunda ediki, muayyan millatning o'tmishi, ma'naviy merosi diniy axloqiy qarashlarini o'rganishga bo'lgan har qanday urunishni "Millatchilik" va yoki "nigilizm" tamg'asini qo'yish bilan qoralangan, ayniqsa diniy axloqiy merosni o'rganishni qat'iyman qilib dinni "afyun" deb e'lon

qilgan edi va bu mafkuradan manfaatdor kuchlar komunistik soxta aqidani zo'rlab ongimizga singdirar edi.

Aslida o'tmishni idiallarga yoki o'tmishdagi adolatli ijtimoiy tenglik, ma'naviy poklik zamonlariga qaytarish inqilobiy xalq harakatlarining ko'pchiligiga barchamiz shohidmiz. O'tmishdagi yaxshi zamonlarga qaytarishiga orzu qilish aslida anglanishga bo'lgan ehtiyojning oqibatidir. Bu muagyyan darajada tarixiy taraqqiyotning buzilish momentlari vaqtlariga xos qonuniy jarayondir.¹

G'arb uyg'onish davrida va keyingi davrlardagi xalq harakatlarida ham o'tmishga qaytish talablarini ko'risj kerak.

Ingliz olimi Gilberd Mubriy xalq harakatlarining mana shu xususiyatini ta'kidlab "yangilikning o'zini o'tmish deb tanishtirish barcha muhim harakatlarda u yoki bu darajada namoyon bo'ladi. Reformasiya tarafdorlari Bibliya (Tavrot) qaytishni oily cherkov harakati ilk cherkovlari davriga qaytishni targ'ib qilgan. Hatto o'tmishdagi eng buyuk uzilish jarayoni bo'lgan Fransuz inqilobi ham qadimgi Rimdagi Respublika davri fazilatlariga yoki inson axloqining ibtidoiy tabiy davrlarida qaytishda da'vat qilgan edi"² deb yozadi.

Madomiki o'tmishdagi, xususan milliy taraqqiyotimizdagi yaxshi zamonlarga qaytishni orzu qilish, diniy va axloqiy merosimizga vorisiylikni chuqur his qilish jamiyatimizdagi yangilanishlarga bo'lgan ehtiyojning oqibati ekan, u holda dinni ma'naviy merosimiz milliy ma'naviyatimiz tarkibiy qismi sifatida hamma milliy istiqlol g'oyasi hamda mafkurasini takomillashtirishning asosiy omili sifatida o'rganish zaruriyati ham yuzaga keladi.

¹ Jakbarov M. IX-XII asr Movarounnahr falsafiy fikrida ijtimoiy ideal va komil inson muammoci/ Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissirtasiya, T.: 2000, 50-bet.

² Ratxakrishnon C. Indiyskaya Filasofiya, M., 1956. c.34.

Zero, o'rta asrlar ma'naviy taraqqiyoti hozirgi musulmon xalqlari tafakkurida ham ayrim g'arb olimlari qarashlarida ham islom mafkurasining insonparvarlik bag'rikenglik universalizm barcha xalqlarga va ijtimoiy hodisalarga insonni qadrlash yaxshilik va ezgulikni himoya qilish mezon sifatida yondashuvning tusi-dini tili va irqi turlicha bo'lgan xalqlarning hamjihatligi va o'zaro hamkorligida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Bu xususida Adam Mensning "musulmon renessansi" kitobida batafsil fikr yuritiladi, va juda ko'p dalillar kiritilgan. Muallifning yozishicha "musulmon imperiyasi o'rtasidagi asosiy farq juda ko'p sonli g'ayriislomiy xalqlarning musulmonlar bilan yashashlarida edi".¹

I.A. Karimov o'zz mulohazalarini quyidagicha bayon qilgan edi. Agar mendan nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar o'ta bezavol yashab kelayabdi deb javob bergan edi. Shu zaminda o'tgan necha-necha avlodlar o'tgan diniy e'tiqodni yurakda saqlasa islom falsafasi rivojlantirib kelmasa, biz bebaho va betakror ma'naviy ruhiy merosdan mahrum bo'lib qolardik. Binobarin, islom dini hyotimiz tub zaminida chuqur singib ketgan. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Shunday ekan milliy istiqlol mafkurasida muqaddas dinimizning mohiyati uning insonparvarlik g'oyalari dinga sog'lom munosabat masalalari ham o'zining oqilona foydasini topishi kerak.²

Bir so'z bilan aytganda, diniy axloqiy merosga axlosmandlik unga vorislik xissini chuqur anglash, barcha sohalarda "yetti o'lchab bir

¹ Mens.A. Musulmanskiy renessans. Moskva...1977.c.39.

² I. A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonch. Ur.T.: "O'zbekiston" 2000.25-b.

kesish”, oqilona faoliyat yuritish bizning kundalik ehtiyojimizga aylanmog’i kerak.

Aql bilan ish ko’rmaslik esa millatning tarixiy asrlar davomida yaratgan ma’naviy boyliklarining taqdirini noxush xolatga olib keladi va qadrsizlantiradi. Bu esa diniy, axloqiy tamoillardan biri bo’lgan insonparvarlikning yemirilishiga imkoniyat yaratadi. Oqibat natijasida jamiyatda ijtimoiy manfaatlar bilan milliy qadriyasizlik o’rtasida chuqur jarlik vujudga keladi. Qadriyatlar yemirilishining ijtimoiy tus olishi shu millatning faqat ma’naviy qashshoqlanishiga olib kelmasdan balki. Moddiy qashshoqlashishiga ham olib keladi, jamiyatda ishonch sussayadi, ishonchning sussayishi esa e’tiqodni yo’qotadi. Natijada jamiyatda insonparvarlik va mehr-shavqat tushunchalari insoniy hissiyotdan uzoqlashtiriladi¹.

Endilikda esa biz dunyoni yangi ko’z bilan ko’rish uni yangicha tafakkur bilan idrok etish jarayonlari ichra ulg’ayib borayapmiz. Bugun yo’qotilgan barcha qadriyatlarni Roy berilgan madaniy va manaviy boyliklarni qaytadan to’plash qadimgi to’ron zamin an’alarini o’z milliy qifoyasi bilan jahon xalqlari sifatida munosib o’rinni olishdek g’oya murakkab va mas’uliyatli vazifalarni amalgam oshirmoqdamiz. Zimmamizda yillar davomida yo’l qo’yilgan ulkan xaqolar va kelajak oldidagi qarzdorlikning zarvorli yuki bor. Biroq buyuk ajdodlarimiz qoldirgan me’rosin qayta tiklash o’zligimiz insoniy his tuyg’ularimizni sha’nimiz va oriyatimizni himoya qilishga uni hamisha balan tutushga tug’ilganing o’zi barcha mashaqqatlardan ustunroqdir. Qalbida millat,

¹ Boyto’rayev T. O. Insonparvarlik va ma’naviy qadriyat haqida ba’zi mulohazalar. Gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy fanlar sohasining muhim masalalari oily o’quv yurtlari ilmiy ishlar to’plami T. 2001. 65-b.

Vatan ajdodlar oldidagi burch tuyg'ulari qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa o'zligini anglashga o'z milliy qadriyatlarini tiklashga shunchalik ko'proq ehtiyoj seziladi.

Bu ehtiyojlar o'z navbatida jamiyatimiz kishilarining tafakkuri aqli hamda siyosati bilan uyg'unlashsagina milliy diniy hamda axloqiy merosga munosabat tubdan o'zgaradi. Ya'ni uni o'rganishga ixlosmandlik darajasi ortadi. Binobarin inson aql eshik ochuvchi ahloq yo'l ko'rsatuvchidir. Yetuk ahloq va odob insonning ziynati davrlar fazilatidir. Aqlli kishi ahloqli bo'lsagina xalqiga, mamlakatiga, yoru do'stlariga naf keltiradi. Fikrimizning dalili sifatida buyuk mutaffakir Alisher Navoiyning ibratli hayoti va ijodini misol qilib olishimiz mumkin. Alisher Navoiy o'zining yetuk, axloqi odobi bilan mamlakatiga hyech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldirdi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq aqli va ahloqi bilan xalqiga mamlakatiga ko'p foyda keltirdi. O'sha davr saroy tarixchilaridan Xondimiz Alisher Navoiyning milliy va davlat manfaatlariga qanday naf keltirganligini tasvirlab quyidagilarni yozadi:

“Amirlik taxtini, hukumat mansabini o'zining muborak qadamlari bilan ziynalladi va jabru jafu raqamlarini davron dahifasidan mahf qilib, adolat va insof eshiklarini insoniyat yuzasiga ochib qo'ydi. Yaralangan davr jarohatlariga malham qo'yib, hur olam dahri kasallariga adolat sharbati bilan shifo baxsh etdi”. Eng avvalo, shuni aytish kerakki, Navoiy buyuk insonparvar va insonshunos mutafakkir edi. Navoiy o'zining ko'kaldosh do'sti shox va hassos shoir Husayn Boyqaro ko'magida xalqining tinch osoyishta mehnat qilishi uchun qayg'urdi, uning iqtisodiy ma'naviyati axloqini yaxshilash uchun kuch sarfladi. Podsho Husayn Boyqaro zamonida Xuroson mamlakatida Xirotdan tortib Mashhadi Marvgacha 12-16-mingdan ortiq inshoat qurilgan. Shular jumlasidan 310

inshoat-madrasalar , masjidlar, hanaqohlar rabotlar yo'llar bo'ylab qurilgan "raboti ishq", "raboti sangbast" nomli karvonsaroylar Hirotida qurilgan "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Unsiya" kutubxonasi "Hiloliya" honaqosi Turkmanistonning Marv shahrida qurilgan. "Xusraviy" madrasasi, Navoiyning shaxsiy tashabbusi va mablag'i bilan qurilgan Hirotni ilm-fanning Sayfi Xiraviyning "Tarikanomai Hirot" kitobida yozilishicha, Navoiy yashagan Hirotida har kuni 20 ming pud undan nonvoylar non yopib shahar aholisini ta'minlar ekan. Qizig'i shundaki, o'sha davrlarda ham A.Navoiy homiyligida 12 ming mullavachcha Sulton Husayn Mirzo hazinasidan oylik maosh bilan ta'minlab turilgan.¹

Bugungi kunda biz buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosidagi, amaliy faoliyatidagi mana shunday insonparvarlik tamoyillarini bunyodkorlik g'oyalarini o'rganib boorish aslida o'zimizda bu jarayonlarga nisbatan oqilona ehtiyojlarni shakillantira borishimiz kerak. Chunki xalqimizning asrlar davomida shakillangan madaniy merosidan odob-axloq ta'lim-tarbiya borasidagi an'analaridan, maqollaridan, hikmatli so'zlaridan qanchalik samarali oqilona va ijodiy foydalansak, o'zbeklarning madaniy, ma'naviyati, mafkurasi chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini anglab olish borasidagi shunchalik samarali natijalarga erishamiz. Jahon sivilizasiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning insonni ma'naviy-axloqiy yetuklikka chorlovchi ta'limotlasri bugungi istiqbolimizning oltin poydevori madaniyatimizning mafkuramizning tag zaminidir. "Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unitilmas hissa qo'shgan olimu fuzololarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan merosi, falsafiy

¹ Abdullayev G'. O'rta Osiyo xalqlari falsafiy merosidan lavhalar. Andijon, 1993, 48.b.

qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor- deb a'kidlagan edi: I.A.Karimov. Masalan Farobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab namunalari hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarni topa oladi."¹

Demak ajdodlarimizning madaniy, dini, ilmiy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Holbuki ma'lum salbiy hodisalar sobiq tuzum mafkurasitazyiqida qadrsizlantirilib yuborilgan insonparvarlik tamoyillari diniy axloqiy mezonlari, takomillashuviga ijobiy ta'sir o'tkaza olmay qolgan edi, to'g'rirog'i uni hayotbaxsh ta'sirchan kuchi yo'qqa chiqqan edi.

Ayniqsa bu holat inson faoliyati, maqsad va intilishlariga ruh bag'ishlaydigan imon-etiqodga salbiy ta'sir o'tkazadi. Chunki diniy-axloqiy tarbiya omillari turmushimizdan majburiy tarzda siqib chiqarilgan edi. adabiyoshunos olim G'aybulloh As-Salomning chiroyli tashbehiga ko'ra, "Xusdoni dinni inkor etish nuqtasidan boshlab yalpi axloqsizlik yemirilishi, vaxshiyliklarga yo'l ochildi."²

Xuddi shuning uchun ajdodlar diniy – axloqiy merosini chuqur o'rganish talab etilmoqdaki, u bizni gumrohlikdan xabarsizlikdan va jaholatdan saqlaydi. Ma'naviy omillarga g'oyaviy jarayonlarga anglab olingan oqilona ehtiyojning yuzaga kelishiga olib keladi, chunki ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosda barcha ajdodlarimiz uchun kesak bo'ladigan ajoyib ilg'or fikrlar borki bular bugungi taraqqiyot uchun o'ahamiyatini yo'qotgan emas.¹

¹ I.A.Karimov jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq millatni –millat qilish ishlariga xizmat qilsin. T. "O'zbekiston" 1998, 12-bet.

² G'aybulloh As-Salom Tolibnoma T: "Sharq" 1997, 140-141-b

¹ Mahmudov Dogonimli ulusga marg'ub ol. T, "O'zbekiston" 1992, 3-bet

Qolaversa diniy axloqiy jarayonlarga, umuman jamiyat milliy g'oyasining tayanch nuqtasi bo'lmish ma'naviyatga ehtiyoj anglanib borsa jamiyat tanazzuliga yuz tutadi. Boshqacha aytganda jamiyat, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy kuch-iqtisodiy siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriyatlati bilan belgilangan ma'naviyat bilan mushtaraklangan ehtiyojdir.

Jamiyat taraqqiyotininbg har bir bosqichai rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo'la olganidek ma'naviy kamolotning har bir bosqichi konkret davrlarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi.² Ma'naviyat borasidagi bir yehtiyojning ro'yobga chiqishi o'z navbatida yangi yanada kengroq ehtiyojlar shakllanishi uchun zamin bog'ladi. Binobarin ma'naviyatning yangi cho'qqilariga yetish ehtiyoji shaxs va jamiyat kamolotining hal qiluvchi omili sifatida faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy kamolotga ehtiyoj, biror chegaraga borib tugallanmaydi ham yurtboshimiz I.Karimov ko'rsatib o'tganidek "sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar, qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi"⁴. Ma'naviyat chashmasini dam izlash inson kamolotini belgilovchi ehtiyoj, hayotning maqsad va mazmunidir bu chashma ko'zi esa ajdodlarimiz diniy, axloqiy hamda madaniy merosini muntazam o'rganib boorish asosidagina ochiladi.

² Yusupov Ye. Inson kamolotining ma'naviy asoslari T., "Universtitet. 1998, 139-b

⁴ Karimov. I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li T. "O'zbekiston" 1999, 71-b

2.3. Shaxs ma'naviyati rivojida diniy qadriyatlarning o'rni mavzusini o'qitish metodikasi

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalar asosan o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga, fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkon yaratadi.

Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayonga hamda o'qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirida, asosan faol yoki interfaol metodlardan foydalaniladi. Aynan shunday metodlardan biri "Zinama-zina" metodidir.

Ushbu mashg'ulot talaba yoki o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib, fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirmagan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtirish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu metod talaba yoki o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Ushbu metodning maqsadi talabalarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarini jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga va uni ma'qullashga shuningdek, mavzuni tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Ushbu metoddan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida keng qo'llash mumkin. Buning uchun mashg'ulot jarayonida quyidagi

vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarni tayyorlab (ajratilgan kichik vazifalari soniga mos) chop tomoniga topshiriqlar nomi yozilgan tarqatma materiallar, flomaster kabilar qo'llaniladi.

Qo'llash texnologiyasi:

O'qituvchi talaba yoki o'quvchilarni mavzular soni qarab, 3-5 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi (guruhlarning soni 4 yoki 5 bo'lgan ma'qul).

Talabalar mashg'ulotning maqsad va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismiga topshiriq nomi ko'rsatilgan varaqlar tarqatiladi.

O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan topshiriqlar bilan tanishtiradi va shu vazifalar asosida flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyga jamoa a'zolari birgalikda muhim fikrlarni yozib chiqishlarini topshiradi hamda vaqt reglamentini belgilaydi.

Kichik guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda ko'rsatilgan topshiriq bo'yicha fikrlarni yozma rasm yoki chizma ko'rinishda ifoda etadilar. Unda guruh a'zolari imkoni boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.


Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi, bu jarayonda guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta, auditoriyadagi pinbord (pinvand) doskasiga yoki sinf doskasiga matniqat ketma-ketlikda tagma-tag (zina shaklida) ilinadi va kichik guruh vakili tomonidan taqdimot qilinadi.

O'qituvchi va guruh talabalari taqdimotni tinglaydi va topshiriq bo'yicha savol-javob asosida muhokama etadilar, guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu metodni qo'llash texnologiyasini ma'naviyat asoslari kursi misolida diniy qadriyatlar va ularning shaxs kamolotiga ta'sirini o'rgatish jarayoniga tadbig'ini ko'rib o'tamiz:

“Diniy qadriyatlar”.

№	Topshiriqlar	Mazmuni
1.	Diniy dunyoqarash	
2.	Diniy qadriyatlar	
3.	Shaxs ma'naviyat kamoloti	



Dinshunoslik asoslari fanida “Diniy qadriyatlar ularning o'ziga xos xususiyatlari” mavzusida seminar darsida quyidagi qo'llash mumkin:

№	Topshiriqlar	Mazmuni
1.	Kirish	
2.	Asosiy	
3.	Yakuniy	

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki, dars jarayonida zinama-zinametodini qo’llash orqali talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantirishga; yozma va og’zaki nutqni rivojlanishiga; dars jarayonida talabalarning faollashishiga; talabalarda motivasiya (qiziqish)ni oshirishga hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olishga o’rgatadi.

Xulosa

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi tufayli diniy qadriyatlar rivojlanishiga keng yo'l ochib berildi. Yo'l boshchimiz ta'kidlaganidek, diniy e'tiqodlar, islomiy qadriyatlar O'zbekiston davlatmustaqilligini mustahkamlash ishiga xizmat qilishi shak-shubhasiz. Shu sababdan unga alohida e'tabor berilmoqda. Ammo din mustaqillikning yagona g'pyasiva bayrog'I bo'la olmaydi. Biz kelajak taraqqiyotga barcha ilg'or mamlakatlar singari dunyoviy davlat qurish orqali boramiz. Bunday mamlakatlarda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat va xuquqiy me'yorlar asosida amalgam oshadi. Din va diniy qadriyatlar ham o'ziga munosib o'rinni egallaydi.

Islom dinining asosiy manbalari va Islom dunyosidan yetishib chiqqan barcha mutafakkirlarning asarlarida ko'plab ilg'or ma'naviy-axloqiy fikrlar ifodalangan bo'lib, ular xalq ma'naviyatining asosiy manbalaridan biri, yoshlar ma'naviy qiyofasini shakillantirishda muhim vositadir. Ularda go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shavqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, Vatanni sevish, o'zligini anglash, fidoiylik, mehnasevarlik, do'stlik, mardlik kabi xislatlar shakillanishining yo'l va uslublari ko'rsatib berilgan.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy diniy-tasavvufiy, ma'naviy axloqiy an'analarga ega. Buyuk muhaddis va so'fiylar Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abdulxoliq G'ijdivoniy, Axmad, Yassaviy Sulaymon

Boqirg'oniy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Mahmudi A'zam Kosoniylar ham o'z ta'limotlari va asarlari bilan insoniyat yaratgan ma'naviy boylikka salmoqli hissa qo'shdilar.

Yuqorida nomlari kiritilgan mutafakkirlar boshqa allomalar o'zlarining asarlarida adolat, ilm-ma'rifat, insoniylik, xalqparvarlik kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Lekin sobiqittifoq tuzumi davrida islomiy qadriyatlar o'zbek mutafakkirlarining faoliyatiga, g'oyalariga butunlay e'tabor berilmadi, targ'ib va tashviq qilish mutlao cheklab qo'yildi.

Mustaqillik davriga kelib, esa, muqaddas Islom dinimiz, diniy qadriyatlarimiz, allomalarimizning diniy axloqiy g'oyalari, asarlarodan foydalanish qayta tiklandi.

Islom ta'limotida va islom mutafakkirlari dunyoqarashlarida yosh avlodni komil inson qilib, tarbiyalashga juda katta e'tabor berilgan. Shuning uchun hozirgi kunda ma'naviy merosdan foydalanish yoshlar tarbiyasida dolzarb masala ekanligi ko'p bor uqtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya jarayonida islom dini asoslari va buyuk islom mutafakkirlari g'oyalaridan foydalanish orqali inson ma'naviy yuksalishga erishishimiz mumkin.

Aytib o'tilgan fik va mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelishi mumkin:

islom ta'limotida uning Qur'oni Karom va Hadisi Sharif va boshqa manbalarida, tasavvuf tariqatida ma'naviyat kamolotining, halollok, poklik, imom va e'tiqod, ishonch va ixlos, mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilmsevarlik, vatanparvarlik kabi diniy va dunyoviy masalalardan birontasi ham e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz;

ota-bobolarimiz dini bo'lgan islom xurofot, bid'at emas, balki odamlarni to'g'ri yo'lga boshlaydigan, haromdan hazar qilishga da'vatetadigan eng muhim ma'naviy omillardan biridir. Islom dini quruq aqidalar yig'indisi emas, balki insonlar uchun imon-e'tiqod, odob axloq, bilim ma'rifatdir;

islom ta'limotidagi kabi tasavvuf ham odamlarni madaniyat, ma'naviyat, ma'rifatga, komil inson bo'lishga da'vat etgan;

O'zbekiston davlat mustaqilligi milliy ma'naviyatimiz va ma'rifatimizning ko'p asrlik takomillashuv tarixida tamomila yangi bosqichdir;

Ta'lim-tarbiya jarayonida tasavvuf namoyondalarining komil inson to'g'risidagi imkoniyat boricha ko'proq foydalanish;

Yod mafkuralar tuzog'iga tushib qolayotgan yoshlar tarbiyasida diniy –axloqiy qadriyatlarimizdan o'rinli va oqilona foydalanish;

Muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va xamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish;

Barkamol avlod tarbiyasida milliy-diniy qadriyatlar asosida yetuk shaxsni axloqan rivojlantirish va shakillantirishda buyuk islom mutafakkirlarimiz tajribasini qo'llash;

Barkamol shaxsda milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashda diniy-axloqiy qadriyatlar va milliy-tarbiya uyg'unligini tarbiyalash;

Yoshlar e'tiqodida islom diniga hurmat va uni mukammal egallash, diniy axloqiy qadriyatlarga ishonch va e'tibor hamda muhabbatini tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan ishlarni amalga oshirishda ziyolilar, ulamolar, faylasuflar, huquqshunoslar, tarbiyachilar, ustodi muallimlar, keng jamoatchilik zimmasiga juda katta masuliyat yuklanadi.

REZYUMESI

Tayanch tushunchalar. Islom, Qur'on, hadis, shariat, fiqh, ma'naviyat, ma'rifat, shaxs, inson, tasavvuf, tariqat, Yassaviya tariqati, Kubraviya tariqati, Naqshbandiya tariqati, ruhiy poklanish, imon, vijdon yerkinligi, mustaqillik, ye'tiqod, diniy qadriyat, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik,. Mehnasevarlik, mehr-muruvvat, halollik, fidoiylik, odob-axloq, yaxshilik, yomonlik, savob, gunoh, ta'lim-tarbiya.

Tadqiqot obyekti: Barkamol insonni tarbiyalash bashariyatning yeng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Xususan, islomning ahkomlari, shariati, qonun-qoidalari, talablari deyarli barcha davrlarga, aksar umuminsoniy yehtiyojlarga ham mos keladi. Islom manbalari bo'lgan Qur'on va Hadislarda, tasavvuf tariqatlarda ilkohiyatga ishonish, ruhiy poklanish, iymon, vijdon, ye'tiqod, adolat, insonparvarlikm mehr-muruvvat, halollik, fidoiylik, xullas, inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lmish ma'naviy va odob-axloq tarbiyasining barcha muammolari qamrab olgan.

Barkamol shaxs kamolotiga islom dini axloqiy qadriyatlarining ta'siri va yoshlarida diniy-axloqiy qadriyat tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, shakl, uslub, vositalari BMI ning predmetini tashkil yetadi.

Ishning maqsadi: Islom dinining asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda va tasavvuf ta'limoti va tariqatlari namoyondalarining insonlarni komillikka yetaklovchi ma'naviy-axloqiy qarashlari orqali barkamol shaxsni tarbiyalashning diniy-nazariy va amaliy yo'nalishlari hamda axloqiy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodi: BMI da retrospektiv, sistemalash - institutsional, funksional va kompleks – sistemali, analiz, sintez, taqqoslash (qiyosiy tahlil) kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Amaliy ahamiyati: BMI da ilgari surilgan g'oyalar va chiqarilgan nazariy xulosalar yoshlarni milliy ma'naviyatimiz atrofida jipslashtirish, milliy-diniy qadriyatlarimizning asosi bo'lgan ma'naviy-axloqiy merosimiz bilan

qurollantirish va shu orqali barkamol insonni tarbiyalash. Shuningdek, falsafa, ijtimoiy-falsafa, qadriyatlar falsafasi, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik asoslari, islom dini asoslari va ma'naviyati kabi fanlarni yangi tushunchalar, fikrlar, yondashuvlar va tavsfiyalar bilan boyitadi, diniy-ma'naviy bilimlar sohasiga oid ilmiy-nazariy yo'nalishni takomillashishiga xizmat qiladi.

Qo'llash sohasi: BMI dan olingan natijalar, fikrlar, xulosalar Umumiy o'rta va O'rta mahsus ta'lim, oliy ta'lim muassasalarida bir qator fanlar: Milliy g'oya, Manaviyat asoslari, Siyosatshunoslik va O'zDJNQ va amaliyoti, O'zbekiston tarixi, Islom dini asoslari va ma'naviyati, dinshunoslik asoslari fanlarining tegishli mavzularida qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – T., "O'zbekiston", 1997.
3. Karimov I. A. Biz kelajagimizni va qo'limiz bilan quramiz, 7-jild. T. "O'zbekiston". 1999.
4. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi, 5-jild. T., - "O'zbekiston", 1997.
5. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., "O'zbekiston". 1996.
6. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1998.
7. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. T., "O'zbekiston". 1996.
8. Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild. T., "O'zbekiston". 1996
9. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni-millat qilishga xizmat esin. T., "Tafakkur", 1999. 2-son.
10. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchir. T., "O'zbekiston". 2000.
11. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., "O'zbekiston". 1992.
12. B. Ochilova. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. T., "Istiqlol", 2009.
13. Muxtasar. T. "Cho'lpon", 1994.
14. alixonto'ra Sog'oniy Tarixi Muhammadiy. 2. kitob. T., 1991.
15. Muhammad Huzuriy. Nur ul yaqin. T., "Cho'lpon" – kamalak". 1992.

16. Imom al-Buxoriy. Er va ayol burchi saylanma hadislar. “O’zbekiston” milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti. T., 1998.
17. Abu Adbulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jome as-sahid. 2-jild. Qomuslar bosh tahriiyoti. T., 1996.
18. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T., “Yozuvchi”. 1996.
19. Husayn voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. T., “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994.
20. Mehmed As’ad Jo’shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T., “Cho’lpon”. 1998.
21. Ibrohim Haqqul Irfon va idrok. T., “Ma’naviyat”. 1998.
22. Sh. Karimov, R. Shamsiddinov Vatan tarixi. 1-kitob. T., “O’qituvchi”. 1997.
23. N. Komilov. Tasavvuf-g’oyiblarxayolidan yongan chiroqlar. T., “O’zbekiston”. 1994.
24. M. Xayrullayev. O’rta Osiyo ilk uyg’onish davri madaniyati. T., “Fan”. 1994.
25. Hoja Abduljoliq G’ijduvoni. T., G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1993.
26. Ne’mat Jabborov. Xoja Ahmad Yassaviy. Tasavvuf osmonining porloq quyoshi: T., 1994.
27. Ibrohim Haqqul Tasavvuf va she’riyat. T., G’afur G’ulom nomli nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.
28. Sa’dulla Siyoyev. Yassaviyning so’ngi safari T., “Cho’lpon”. 194.
29. Abdulhakim Shar’iy Juzjoni. Tasavvuf va inson T., “Adolat”. 2001.
30. Najmiddin Komilov. Najmiddin Kubdo, T., 1995.
31. Sadridin Salim Buxoriy Buyuk Xorazmiylar. T.,-Yozuvchi, 1994.
32. Najmiddin Komilov. Tasavvuf tariqatidagi yangi yo’nalish-shayx Najmiddin Kubro. Maqolalar. T., Yozuvchi nashriyoti, 1995.
33. M. Boratov, O. Usmonov O’rta Osiyoda tasavvuf oqimlari. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., “O’zbekiston”. 1995.

34. Abul Muhsin Muhammad Baqir iln Muhammad Ali Bahoriddin Balogardon. T., “Yozuvchi”, 1993.
35. Mir Kulol va Shohi Naqshband Maqomatlari-Durdona. T., “Sharq”, 1993.
36. Izzat Sulton. Naqshband adabiyoti, T., “Fan”, 1994.
37. Asrorova Z. Ehtiyoj”Guliston”, № 6, T.: 1999.
38. Jovliyev T. An’analar hayot sabog’i. T., “O’zbekiston”, 1992.
39. Mens A. Musulmanskiy renessans Moskva, 1977.
40. Boyto’rayev T. D. Insonparvarlik va ma’naviy qadriyat haqida ba’zi mulohazalar. T., 2001.
41. Abdullayev G’. X. O’rta Osiyo xalqlari falsafiy merosidan lavhalari Andijon, 1993.
42. G’aybulloh As-Salom. Tolibnoma. T., “Sharq” 1997.
43. Yusupov E. Inson Kamolotining ma’naviy asoslari. T., “Universitet”, 1998.